

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

«O‘ZBEK FILOLOGIYASI» KAFEDRASI

**O‘ZBEK TILIDA KOMPOZITSIYA USULIDA SO‘Z YASALISHI
HODISASI**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O‘zbek filologiyasi» ta‘lim
yo‘nalishi bitiruvchisi 4-kurs talabasi
Rajapbayev Daniyar _____

ILMIY RAHBAR:
dots. Abdullayev Sh. _____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.
____-sonli bayonnomasi «____» may 2014yil

Nukus- 2014

BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOYAGA TAVSIYA

QILINADI:

Fakultet dekani: dots. Abdullaev H.
Kafedra mudiri: dots. Bobojonov F.
Ilmiy rahbar: dots. Abdullayev Sh

DAK Q A R O R I:

Rajapbayev Daniyarning **“O‘ZBEK TILIDA KOMPOZITSIYA USULIDA SO‘Z YASALISHI”** mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » () bahosi qo‘yilsin.

DAK kotibi:

Qlichev N.

«_____» _____ 2014 yil

O`ZBEK TILIDA KOMPOZITSIYA USULIDA SO`Z YASALISHI HODISASI

Reja

Asoslama.

Kirish.

I bob. O`zbek tilida so`z yasalishi hodisasi va kompozitsiya usuli.

1.1. O`zbek tilida so`z yasalish tiplari va strukturasi

1.2. Qo`shma so`z yasalish modellari.

1.3. Qo`shma so`z qismlari orasidagi munosabatlarning ifodalanishi.

II bob. Qo`shma so`zlarning hosil bo`lishi va imlosi masalasi

2.1. Qo`shma fe'l va ularning imlosi.

2.2. Qo`shma otlar va ularning imlosi.

2.3. Qo`shma sifat va olmoshlarning hosil bo`lishi va imlosi.

Umumiy xulosalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

ASOSLAMA

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizning turli jabhalarida jamiyat taraqqiyotida ijobiy o'zgarishlar o'z natijasini bermoqda. Jumladan, filologiya sohasidagi o'zgarishlar, xususan, tilshunoslikda o'zbek tili grammatikasini sistem-struktur, ya'ni tilga substansial (zotiy) hodisa sifatida yondashuv olimlarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bunda tilshunosligimizda rus tilshunosligi qoliplari asosida shakllangan va rivojini kutayotgan masalalar yangi qolip asosida o'rganila boshlandi. Tilni yangi sistem-struktur metod asosida o'rganish uning barcha sohalarida, shu jumladan, so'z yasalishi tizimida ham o'z natijasini bermoqda.

Mazkur bitiruv malakaviy ishimiz ham an'anaviy hamda yangicha qarashlarga tayangan holda o'zbek tilining so'z yasalishi tizimi, xususan, kompozitsiya usulida so'z yasalishi hodisasini atroflicha o'rganishga bag'ishlanadi. Bunda so'zni qo'shish orqali, ya'ni kompozitsiya usullarida so'z yasalishi misollar yordamida dalilab beriladi. Shuningdek, hozirgi kunda so'z yasalishining mazkur usuli bo'yicha so'z yasalishi haqidagi munozarali qarashlar, bu asosda hosil qilingan qo'shma so'zlar esa aslida so'z birikmasi ekanligi, nutqiy vaziyat bilan bog'liq shunday ishlatilishi kabi munozaralar ham kuzatuvga olindi. Mana shu jihatlar hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z yasalishi, jumladan, so'z qo'shish usuli bo'yicha mavzuning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tilshunoslikda so'z yasalishi sohasi ancha yillardan beri o'rganilib kelingan. O'zbek tilida ham so'z yasalishi bo'yicha olimlar tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, bu ishlarda so'z yasash tiplari, strukturasi, so'z yasash qoliplari, so'z turkumlarida so'z yasalishiga doir tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, o'zbek tilida so'z yasalishi bo'yicha o'zbek tili grammatikasida, turli darslik va qo'llanmalarda, H.Ne'matov, A.G'ulomov, R.Rasulov, A.Hojiyev, Sh.Shahobiddinova, A.Berdialiyev, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Mirzaqulov, Z.Akobirova, Q. Zokirov, H. Jamolxonov kabi olimlarning qarashlari mavjud.

O'zbek tili so'z yasalishi bo'yicha ayniqsa A.Hojiyevning xizmatlari beqiyosdir. Bu borada uning bir qancha ilmiy asarlari yuzaga kelgan. Maktab darslik va qo'llanmalarida olimlar o'zbek tilida so'z yasalish usullarini beshta deb ko'rsatsalar, ayrimlari uchta, ba'zi ishlarda hatto ikkita deb ko'rsatiladi. Masalan, affiksatsiya (morfologik) usuli, kompozitsiya (sintaktik) usul, abbreviatsiya (so'zlarni qisqartirish) usuli, turkumdan turkumga ko'chish (semantik) usuli, so'zlarni takrorlash usuli kabi. Bular asosida yangi so'z yasash hodisasi rus tili qoliplari asosida shakllanganligi ta'kidlanib, hozirgi kunda ayrim olimlar kompozitsiya usulida so'z yasalish hodisasi mavjud ekanligini inkor etayaptilar. Bu haqda A.Hojiyevning maxsus qo'llanmasi e'lon qilingan.

Ishning obykti va predmeti. Tadqiqot obykti uchun darslik va qo'llanmalarda berilgan umumnazariy ma'lumotlar, davriy matbuot sahifalaridagi va boshqa sohalardan olingan materiallar belgilandi. Ishning predmeti esa kompozitsiya usulida so'z yasalishining o'ziga xos jihatlari yoritishdan iborat.

Malakaviy ishning manbalari. Bitiruv-malakaviy ishimizning manbalari sifatida oldin bu sohada amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari uchun yaratilgan darslik va qo'llanmalar, izohli lug'atlar, shuningdek, badiiy asarlar fikrimizni tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Ishda asosan o'zbek tili grammatikasi, turli davrlarda yaratilgan darslik va qo'llanmalar, o'zbek tili so'z yasalishi tizimiga bag'ishlangan ishlaridan asosiy manba sifatida foydalanildi.

Tadqiqot metodlari. Bitiruv malakaviy ishda ilmiy-tadqiqot metodlaridan tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, tahliliy usullardan, qiyosiy tipologik metoddan keng foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Hozirgi o'zbek tilshunosligida zotiy tilshunoslik nuqtai nazaridan amalga oshirilayotgan ishlar, so'z yasalishi tizimi bo'yicha qilinayotgan sa'y-harakatlar o'zbek tilida so'zlarning yasalishi usullari, jumladan, keyingi tadqiqotlar natijasida kompozitsiya usuli asosida so'zlarning yasalishi kuzatildi. Ana shu qarashlar asosida kompozitsiya usulida so'z yasalishi hodisasi

daliliy misollar orqali isbotlandi hamda ko'pgina qo'shma so'zlar yasalishining aniqlanishi ishimizning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv-malakaviy ishimizning xulosa va natijalari o'zbek tilshunosligi, xususan, o'zbek tilida so'z yasalish tizimi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishda, maqolalar yozishda, umuman, ilmiy adabiyotlar yaratishda ahamiyati katta. Shuningdek, ish materiallaridan soha bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda ham foydalanish mumkin. Shu bilan birga umumta'lim maktablari, o'rta maxsus ta'lim muassasalari ona tili fanida amaliy qo'llanma sifatida, oliy ta'limda hozirgi o'zbek adabiy tili kursida amaliy mashg'ulot darslarida hamda kurs va mustaqil ishlarni bajarishda material sifatida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish tuzilishi jihatdan kirish, ikki asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 67 betdan iborat.

KIRISH

Hozirgi kunda umumiy tilshunoslikda qator yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Shu qatorda o‘zbek tilshunosligida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqdaki, bu ishlar tilga substantsial (zotiy), ya’ni tizim sifatida yondashuv asosida olib borilmoqda. Bu esa o‘zbek tilshunosligining taraqqiyot bosqichining yaqqol ifodasidir.

Mustaqil O‘zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma’naviy sohalardagi keng ko‘lamli ishlar bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”¹ ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ona tilini o‘rganishni ham tashkiliy, ham mazmuniy jihatdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Ma’lumki, milliy mustaqilligimiz uchun kurash o‘zbek tiliga – millatning asosiy atributi hisoblanmish ona tilimizga davlat tili maqomi berilishi bilan boshlandi. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov tilning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, mavqei, komil inson tarbiyasidagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratib shunday deydi: «Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. Ona tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar»².

Mustaqillik yillari tilshunoslik sohasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tilshunoslikning barcha sohalari bo‘yicha yangi tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, so‘z yasalishi sohasi bo‘yicha talaygina ilmiy-tadqiqot ishlari, monografiyalar yaratildi va yaratilmoqda.

Tildagi ma’lum usul va vositalar yordamida yangi so‘zlar hosil qilish so‘z yasalishi deyiladi. Tilshunoslikda “so‘z yasalishi” termini ikki ma’noda qo‘llanadi: bir tomondan, tilda yangi so‘z hosil qilish jarayonining o‘zini bildiradi, ikkinchi tomondan esa tilshunoslikning so‘z yasalishi sistemasini o‘rganuvchi bo‘limini

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent, 1997.

² Karimov I.A. Adolat, vatan va xalq manfaati har narsadan ulug‘. –T.: O‘zbekiston, 1998. -B. 59.

bildiradi. Soʻz yasalishi tilda mavjud boʻlgan soʻz yasalishi tarkibini, soʻz yasash usullarini oʻrganadi. Bularni oʻrganish hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi soʻz yasalishi meʼyorini belgilash, uning qonuniyatlarini toʻgʻri tushunish imkoniyatini beradi. Soʻz yasalishi tizimi morfemika bilan uzviy bogʻlangan. Chunki soʻzning maʼnoli qismlari – morfemalar (oʻzak morfema va affiksial morfema) tilda yangi soʻz hosil qilishning eng muhim elementlari hisoblanadi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida morfemika boʻlimidan tashqari soʻz yasalishi ham alohida soha sifatida oʻrganib kelinmoqda.

Soʻz yasalishiga oid asosiy tushunchalarni toʻla va toʻgʻri belgilash, ulardan har birining mohiyatini toʻgʻri aniqlash soʻz yasalishi tizimi bilan bogʻliq barcha hodisalarning mohiyatini toʻlaligicha, toʻgʻri yoritish imkonini beradi. Bu tushunchalardan har birini aniq belgilash va mohiyatini toʻgʻri yoritish boshqasining ham shunday muvaffaqiyatli hal etilishiga yoʻl ochadi. Shuning uchun ham ularni maʼlum tartib asosida bayon etish lozim.

Oʻzbek tili soʻz yasalishiga oid asosiy tushunchalar quyidagilar: 1) soʻz yasash (soʻz yasalishi), 2) soʻz yasash usuli, 3) yasama soʻzning tarkibi, 4) soʻz yasalish asosi, 5) soʻz yasovchi, 6) soʻz yasalish maʼnosi, 7) soʻz yasalish tipi, 8) mahsulli va mahsulsizlik, 9) soʻz yasalish imkoniyati.

Oʻzbek tilida soʻz yasalishi hodisasi mustaqil soʻz turkumlariga, mustaqil soʻz turkumlaridan ham, asosan, ot, sifat va feʼl turkumiga xos hodisadir. Son, olmosh va ravish turkumlarida haqiqiy maʼnodagi, tizim sifatidagi soʻz yasalishi kuzatilmaydi. Masalan, son turkumida «soʻz yasalishi» deb qaralayotgan hodisa, aslida, forma (shakl) yasalishidir, yaʼni, masalan, *-ta*, *-(i)nchi* qoʻshimchasi bilan yasaluvchi *beshta*, *beshinchi* kabilar soʻz (son) yasalishi emas, balki sonning maʼlum grammatik maʼnoli (dona, tartib maʼnoli) shaklidir.

Olmoshlar boshqa soʻz turkumiga mansub soʻzlar oʻrnida qoʻllanuvchi soʻzlar boʻlganidan ularning oʻziga xos soʻz yasalishi tizimi boʻlmasligi tabiiy holdir¹.

¹ Bular haqida maxsus maqolada fikrlar aytilgan. Qarang: A.Hojiyev va b. Спорные вопросы в системе словообразования тюркских языков. «Советская тюркология» ж. №2, 1989.

Xullas, o‘zbek tilida ot, sifat va fe‘l turkumlariga oid so‘z yasalishi tizimlari shu tilning so‘z yasalishi tizimini tashkil etadi.

O‘zbek tiliga oid adabiyotlarda so‘z yasalish tizimida, asosan, asosga qo‘shimcha qo‘shish yoki affiksatsiya (morfologik) usuli hamda so‘zga so‘zni qo‘shish yoki kompozitsiya (sintaktik) usullari faol hisoblanadi.

Affiksatsiya usulida so‘z yasalishida asos so‘zga yasovchi qo‘shimcha qo‘shish yordamida yangi ma’noli so‘z hosil qilish tushuniladi. Masalan, *zar* so‘zi asosiga *-gar* yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish bilan yangi soha mutaxassisi ma’nosini ifodalovchi *zargar* leksemasi yasaladi.

Kompozitsiya yoki sintaktik usulda so‘z yasalishida esa bir asos so‘zga ikkinchi asos so‘zni qo‘shish orqali yangi ma’noli qo‘shma so‘z hosil bo‘ladi. Masalan, mustaqil ma’noli *qo‘l* so‘zi va *qop* so‘zlarini qo‘shish yordamida *qo‘lqop*, ya’ni qo‘lga kiyiladigan kiyim ma’noli yangi so‘z hosil qilinadi.

Demak, yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, affiksatsiya usulida so‘z yasash orqali sodda so‘zlar, kompozitsiya usulida so‘z yasashda esa qo‘shma so‘zlar hosil qilinadi ekan.

Lekin A.Hojiyevning «O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi» kitobida kompozitsiya ya’ni so‘z qo‘shish usuli mavjud emas degan fikr ilgari suriladi. Bu usul yordamida hosil qilingan qo‘shma so‘zlarni u so‘zlarni qo‘shish yordamida yasalgan emas, balki bunday so‘zlarning ko‘pchiligi turli hodisa, yo‘llar bilan yuzaga kelgan deb e’tirof etadi¹. Masalan, ularning ba’zilari boshqa tildan shunday o‘zlashtirilgan bo‘lishi, ba’zilari so‘z birikmalarining nutqiy jarayon davomida shunday holga kelib qolganligi, ayrimlari esa okkazional yasalish (nutqiy hodisa) deb hisoblaydi. Lekin bu fikrni to‘laqonli asosga ega deb bo‘lmasa ham, unda mantiqiy asos mavjud.

Mazkur fikrlarga tayangan holda ushbu malakaviy ishimiz mavzusi ham o‘zbek tili so‘z yasalish tizimining asosan kompozitsiya usulida so‘z yasalish xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlanadi. Bunda ta’kidlangan usulda so‘z va uning ma’noviy turlari misollar orqali ochib beriladi.

¹ A.Hojiyev. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2007. –B. 167

Qo'shma, juft va takroriy so'zlarga bo'lgan ko'z qarash tilshunoslikda turlicha talqin qilinadi. Ma'lumki, ichki grammatik tobelik munosabatlari anglashilmaydigan, ikki yoki undan ortiq so'z shakllaridan tashkil topib, bir urg'uga birlashadigan va bir tushinchani ifodalaydigan so'z qo'shma so'z sanaladi. Juft so'z esa, ma'no jihatidan o'zaro biron darajaga bog'langan ikki boshqa-boshqa so'zning grammatik jihatdan teng munosabatda birikishi bilan har biri o'z ma'nosi va urg'usini saqlagan holda bir umumiylikga ega bo'lgan butunlik hosil qilishi bilan paydo bo'ladi. Takroriy so'z leksik-grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil qiluvchi, takror holda qo'llanadigan so'zdir.

Kompozitsiya yo'li bilan so'z yasash qo'shma so'zlar yaratish bo'lib, bunda ikki (yoki undan ortiq) so'zning qo'shilishi yangi leksik birlik - leksemani hosil qiladi. So'z yasashning bu tipi ham o'zbek tilidagi faol yo'llardandir. Qo'shma so'zning komponentlari, tarkibidagi qismlari, ayrim so'z (tub so'z yoki yasama so'z) tusida bo'ladi: bu element shu ko'rinishida boshqa kombinatsiyalarda o'zak yoki negiz vazifasida kela oladi. Lekin bu elementning ikki holati - ayrim so'zligi va qo'shma so'z tarkibida kelishi (mustaqil so'zligi va so'zning qismi bo'lishi) bir-biridan jiddiy farqlar bilan ajralib turadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi qo'shma, juft va takroriy so'zlar masalasi maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan¹. Shuningdek, qo'shma, juft va takroriy so'zlar masalasi oliy o'quv yurti talabalari uchun nashr qilingan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" atamasidagi qator darslik va qo'llanmalarda ham o'z talqiniga ega. Umumta'lim maktablarining 5-6-sinflari uchun nashr qilingan ona tili darsliklarida har bir so'z turkumidan keyin qo'shma, juft va takroriy so'zlar bahsida keltirilib o'tiladi. Ishimizdan ko'zlangan maqsad qo'shma, juft va takroriy

¹ Hojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. -T.: 1965. Hojiyev A. Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi. -T.: 1979.

soʻzlarning oliy taʼlim uchun moʻljallangan darsliklarda va umumtaʼlim maktablarining ona tili darsliklarida berilishi va ularning yasash xususiyatlarini koʻrsatib berishdan iborat.

I BOB. O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISHI HODISASI VA KOMPOZITSIYA USULI

1.1. O‘zbek tilida so‘z yasash tiplari va strukturasi

Til lug‘at tarkibining yangi yasalgan so‘zlar hisobiga boyib borishi, so‘z ma‘nosining o‘zgarishi, uni boshqa ma‘noda ishlatish yo‘li bilan yangi so‘z hosil qilish – bular so‘z yasashining leksikologiya bilan aloqasini ko‘rsatadi. Grammatika esa so‘z yasash jarayonini boshqaradi, yangi yasalgan so‘zlarning qaysi so‘z turkumiga tegishli ekanligini belgilaydi. Har bir turkum doirasida so‘z yasashning shakl yasash bilan aloqada ekanligi, so‘z yasashi va shakl yasashida ko‘pincha bir xil yoki bir-biriga yaqin affikslarning ishlatilishi esa so‘z yasashi bo‘limining bevosita morfologiya bilan bog‘langanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, so‘z yasashning boshqa usullari bilan munosabatda ekanligini ham ko‘rsatadi.

So‘z yasashida qarindosh so‘zlarning tarkibi jihatidan aloqasi, o‘zaro bog‘langanligi tahlil qilinadi. Shuning uchun so‘z yasashi sistemasini o‘rganishda har bir konkret morfemaning (ham asos morfema, ham affiksial morfema) so‘z yasovchilik xususiyati aniqlanadi. Shuningdek, grammatik tarkibi turlicha bo‘lgan so‘zlarning (tub va yasama so‘zlarning) yangi so‘z hosil qilishdagi rolini belgilash ham muhim ahamiyatga ega.

Har bir yasalmada ikki narsa – yasash asosi va yasovchi vosita mavjud bo‘ladi. Masalan, *bilim, hozirgi, yaxshilik* so‘zlarida *bil, hozir, yaxshi* qismi yasash asosi bo‘lib, *-im, -gi, -lik* qismlari yasash vositasidir. So‘z qo‘shish orqali hosil bo‘lgan so‘zlarda esa ikki va undan ortiq yasovchi asos qatnashadi. Bu xil yangi so‘zning ma‘nosi bir holatda yasovchi asos vazifasida kelgan qismlari ma‘nosiga asoslanadi, shularning birlashuvidan kelib chiqadi: *oqqush, tokqaychi, otboqar, temiryo‘l, asalari* kabi. Ikkinchi holatda esa bunday so‘zning ma‘nosi uning yasovchi asos vazifasidagi qismlari ma‘nosidan kelib chiqmaydi, balki har ikki qismning qo‘shilishi natijasida ularning ma‘nosidan farq qiladigan yangi ma‘no ifodalanadi: *oshqozon, qizilishton, qo‘lqop, gultojxo‘roz* kabi.

Demak, yangi yasalmanni hosil qilishda qatnashadigan morfemalar yig'indisi so'z yasalishi tarkibini tashkil qiladi. Masalan, *bilim* so'zida *bil* – yasash asosi, *-im* yasovchi vosita – affiks; *paxtachi* so'zida *paxta* – yasash asosi, *-chi* – yasovchi affiks.

So'z yasalishi tarkibi so'zning morfema tarkibidan ham, so'zning morfologik tarkibidan ham farq qiladi. So'zning morfema tarkibida har bir ma'noli qism – morfema ajratiladi. Jumladan, *bilimdon* so'zi uch morfemaga bo'linadi (*bil-im-don*). So'z yasalish tarkibida esa bu so'z yasash asosi va yasovchi affiks nuqtai nazaridan *bilim-don* tarzida ikki qismga ajratiladi. Shuningdek, *bilimdonlik* so'zi morfemalarga *bil-im-don-lik* deb ajratilsa, so'z yasalishi tarkibi bo'yicha *bilimdonlik* deb ajratiladi. So'zning morfologik tarkibida asosan shakl yasash asosi va shakl yasovchi vosita aniqlanadi. So'z yasash tarkibida esa so'z yasash asosi va so'z yasovchi affiks ajratiladi. Masalan, *adabiyotshunoslikdan* so'zida *adabiyotshunos* – so'z yasash asosi, *-lik* – yasovchi affiks; *adabiyotshunoslik* – shakl yasash asosi, *-dan* – yasovchi affiks. Demak, so'z yasalish tarkibida so'zning leksik ma'no anglatadigan qismi, so'zning morfologik tarkibida esa grammatik ma'no ifodalovchi qism tahlil qilinadi.

Tilda so'z yasalishi uchun ham, shakl yasalishi uchun ham ko'pincha affikslar xizmat qiladi. Har ikki holatda ham so'z yasash asosi yoki shakl yasash asosi va so'z yoki shakl yasash vositasi mavjud bo'ladi. Ammo so'zning tarkibini so'z yasalishi asosi hamda shakl yasalishi asosi nuqtai nazaridan o'rganish bir-biridan farq qiladi.

«So'z yasash» («so'z yasalishi»). So'z yasash birikmasi ikki ma'noga ega: 1) umuman, yangi so'z hosil qilish; 2) til birliklari yordamida, ma'lum usul bilan so'z hosil qilish. Ana shu (ikkinchi) ma'nosi bilan «so'z yasash» birikmasi lingvistik termin hisoblanadi, lingvistik tushunchani bildiradi.

Bu birikmaning «so'z yasalishi» shakli (*-l* affiksli nisbat shakli) ham keng qo'llanadi. Uning qaysi nisbat shakli ekanligiga e'tibor berish lozim. Chunki bu narsa so'z yasash (so'z yasalishi, so'z hosil bo'lishi) bilan bog'liq hodisalarning mohiyatini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur qo‘shimcha yordamida fe‘lning‘zlik va majhul nisbat shakli yasalishi ma‘lum. Lingvistik termin bo‘lmish «so‘z yasalishi» birikmasidagi *yasalish* fe‘li majhul nisbat shakli hisoblanadi. Bu termin (so‘z yasash) o‘zlik nisbat shakli va ma‘nosida qo‘llanishi mumkin emas. Chunki «so‘z yasash» deganda, «maxsus til birikmalari yordamida, ma‘lum bir usul bilan so‘z hosil qilish» tushunilar ekan, bu hodisaning subyekt (bajaruvchi)ga aloqasi bo‘lmasligi mumkin emas.

O‘zbek tili «so‘z yasalishi» deganda, «so‘z yasalishi» birikmasi, fonetika, morfologiya terminlari kabi, o‘zbek tilshunosligining sohasini bildiradi. Demak, so‘z yasalishi termini ikki ma‘noga ega: 1) hozir qayd etilgan soha ma‘nosi; 2) so‘z yasash terminining majhul nisbat shakli va ma‘nosi.

So‘z yasalishi tilshunoslikning alohida sohasi (bo‘limi) sifatida, so‘z yasash va u bilan bog‘liq birliklar, hodisalar haqidagi, umuman aytganda, so‘z yasalishi tizimi haqidagi ta‘limotdir.

So‘z yasash termini til birliklari yordamida ma‘lum usul bilan so‘z hosil qilishni bildirar ekan, birinchi galda, ana shu masalaga – so‘z yasash usuli masalasiga to‘xtalish lozim bo‘ladi.

So‘z yasash usuli tushunchasi so‘z yasalishi bo‘limining asosiy tushunchalaridan biri, desak xato bo‘lmaydi. Uning mohiyatini to‘g‘ri anglamasdan, avvalo, so‘z yasashning qanday usuli yoki usullari borligini aniq belgilab bo‘lmaydi.

So‘z yasash usuli (usullari) bo‘yicha juda ko‘p ishlar qilindi, ko‘p fikrlar bildirildi. Biroq o‘zbek tilshunosligida bu hodisaning mohiyati shu vaqtga qadar aniq belgilangani, bu masalada bir fikrga kelingani yo‘q. Natijada, so‘z yasalishiga oid juda ko‘p hodisalarning mohiyati to‘g‘ri yoritilmayotganligidan tashqari, so‘z yasalishi bahsida bu tizimga aloqasi bo‘lmagan narsalar o‘rin olib kelyapti. Bu ham yasama so‘z bilan bog‘liq masalalarni to‘g‘ri hal etishga o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatib kelmoqda. Demak, so‘z yasash usuli masalasida to‘g‘ri va aniq bir xulosaga kelish so‘z yasalishiga oid hodisalarni aniq belgilab olishga, ularning mohiyatini to‘g‘ri yoritishga yo‘l ochadi. Bunda o‘zga tillarga oid qoidalar,

ta'riflar asosida emas, bevosita o'zbek tilining 'z materiallari asosida ish ko'rish talab etiladi.

O'zbek tili so'z yasalishi haqida fikr yuritilgan ishlarda so'z yasalishining bir necha usuli qayd etiladi. E'tibor bering: «...o'zbek tilida so'z yasashning vositalari har xil bo'lib, ularning tiplari shunday ko'rinishlarga ega: morfologik tip (so'z yasashning leksik-semantik yo'li), morfologik-sintaktik tip (so'z yasashning morfologik-sintaktik yo'li), fonetik tip (so'z yasashning fonetik yo'li). Demak, so'z yasash: 1. Grammatik so'z yasash (affiks yordamida so'z yasash – affiksatsiya, so'z qo'shish yo'li bilan so'z yasash – kompozitsiya, so'zni bir leksik-grammatik kategoriyadan boshqa turkumga ko'chirish, kategorial ko'chish yo'li bilan yasash - konversiya). 2. Leksik-semantik so'z yasash (ma'no'zgarishi orqali yangi so'zning hosil bo'lishi). 3. Fonetik so'z yasash (fonetik vositalar – har xil fonetik o'zgarishlar yordami bilan yasash) tusida bo'ladi.

Hozirgi zamon o'zbek tilida so'z yasashning keng qo'llaniladigan, eng unumli, yetakchi tiplari affiksial yo'l va kompozitsiya – so'z qo'shish yo'lidir...

Hamma tipdagi so'z yasash uchun umumiy belgi yangi leksema hosil qilishdir»¹.

Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida leksemalar qanday yo'llar bilan yuzaga keladigan bo'lsa, ularning hammasi so'z yasash usuli deb qaralyapti va har bir «usul» so'zning yuzaga kelish yo'li bilan atalyapti. Boshqa ishlarda ham xuddi shunday berilgan.

So'z yasash deganda, ma'lum bir lug'aviy birlikdan so'z yasovchi vosita yordamida yangi so'z hosil qilish tushuniladi. Masalan, *bilim* so'zi *bil* so'ziga – (*i*)*m* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan. Demak, bu usul – qo'shimcha qo'shish usuli. Har qanday yasama so'z ana shunday tarkibiy qismdan – so'z yasash asosi va so'z yasovchidan iborat tarkibiy qismdan tashkil topgan bo'ladi. Shunday qismlarni birlashtirib, so'z hosil qilish so'z yasash usulini belgilaydi. So'z yasash hodisasi va usuli shunday tushunilganda, so'z yasash usuli deb

¹ O'zbek tili grammatikasi, ikki tomlik, I tom. Morfologiya, T.:«Fan» nashriyoti. 1975. –B.22-23.

ta'riflanayotgan usullarning ko'pchiligi so'z yasash usuli emasligi ma'lum bo'lib qoladi.

Har bir yasama so'z so'z yasash asosi va so'z yasovchidan iborat tarkibga ega bo'lishini ko'rdik. Ana shu tarkib so'z yasashning modeli hisoblanadi. Lekin A.Hojiyev qo'shma so'z deb atalayotgan so'zlarda esa so'z yasash modeli yo'q deb ta'kidlaydi.

So'z yasovchilar o'zbek tilida so'z yasash asosiga va so'z oxiriga qo'shiladi, ya'ni suffiks, suffiksoid xarakterida bo'ladi: *ishchi, ishla, ishxona* kabi. Tojik tilidan o'zlashgan ayrim so'z yasovchilargina so'z yasash asosiga uning oldidan qo'shiladi: *noto'g'ri, serharakat, kamgap* kabi. Lekin bu hol yasama so'zning ma'no yoki boshqa xususiyatiga ta'sir etmaydi. Shuning uchun ularni alohida tahlil etishning hojati yo'q.

Har qanday yasama so'zda so'z yasash asosi bitta bo'lganidek, so'z yasovchi ham bitta bo'ladi: *uysoz, ko'rimsiz, terim, terimchi, serunum, kamgap*.

Ko'rdikki, so'z yasovchi vazifasida affiks, affiksoid, yordamchi so'z qo'llanadi. Rus tilshunosligida so'z yasovchilarning barcha turlari uchun umumlashtiruvchi «slovoobrazovatel'n'y formant» termini qo'llanadi. O'zbek tili so'z yasovchilariga nisbatan ham, o'rni bilan, umumlashtiruvchi «formant» so'zini (so'z yasovchi formant terminini) qo'llash mumkin.

Har qanday yasama so'zning tarkibi ikki qismdan – so'z yasash asosi va so'z yasovchidan iborat bo'lishini bilamiz. Yangi so'z yasashda doim shu ikki komponent ishtirok etishi sababli ayrim ishlarda, ayniqsa, rus tiliga oid ishlarda, so'z yasash asosi ham so'z yasovchi, «yasovchi» deyilaveradi. O'zbek tilshunosligida bu haqda A.Berdialiyev «O'zbek tilida so'z yasovchi qo'shma affikslar» nomli nomzodlik dissertatsiyasida, jumladan, quyidagicha fikrni bildiradi: «... o'zbek tilida affiksali so'z yasalishi sohasida yasovchi element deb, odatda faqat affiksning o'zi qarab kelingan, o'zak-negiz yasovchi element sifatida qaralmagan, shunga ko'ra u semantik jihatdan keng tahlil qilinmagan, holbuki,

masalan, *ipakchi* soʻzining har ikki elementi ham yasovchilardir... *ipakchi* soʻzi *ipak* va *-chi* elementlaridan hosil qilingan»¹.

Soʻz yasalishida ikki qism – soʻz yasalish asosi va soʻz yasovchi ishtirok etishi, yasama soʻz shu ikki qismning birikishidan hosil boʻlishi toʻgʻri. Lekin faqat shunga asoslanib, mohiyatan bir-biridan farqli boʻlgan soʻz yasalish birliklarini (soʻz yasalish asosi va soʻz yasovchini) bir xil nom bilan, yaʼni «soʻz yasovchi» deb atash hech bir jihatdan maqbul emas. Soʻz yasalishida ishtirok etuvchi bu ikki komponent maʼnosi, vazifasi va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Shunga koʻra, bularning har birini, oʻz maʼno va vazifasi asosida, alohida nom bilan atash lozim.

«Soʻz yasalish asosi» termini yasama soʻzning shu komponentini umumiy xususiyatiga koʻra ataydi. Bunda uning material jihatdan qanday birlik ekani aks etmaydi. Masalan, *terim* soʻzining *ter* qismi (yasama soʻzning tarkibiy qismi sifatida) soʻz yasalish asosi, material qism sifatida – leksema, tub soʻz, feʼl. *Terimchi* soʻzining *terim* qismi – soʻz yasalish asosi, material qism sifatida – yasama soʻz, ot.

«Soʻz yasovchi» termini ham yasama soʻzning ikkinchi tarkibiy qismini umumiy (asosiy) xususiyatiga koʻra ataydi va bu nomda uning material jihatdan qanday birlik ekani aks etmaydi. Masalan, *rangdor*, *qabulxona*, *kamchiqim* soʻzlaridagi *-dor*, *-xona*, *kam-* soʻz yasalish birligi sifatida – soʻz yasovchi. Material birlik sifatida esa *-dor* – affiks, *-xona* – affiksoid, *kam* – yordamchi soʻz.

Demak, «soʻz yasovchi» deganda, soʻz yasalish asosiga nisbatan olinib, unga qoʻshiladigan va yasama soʻzni hosil qiladigan komponent tushuniladi. Ana shunday tushunilganda, atalganda soʻz yasalish asosi va soʻz yasovchi terminlari har bir birlikning (yasama soʻz komponentlarining) mohiyatini, ularning oʻzaro farqini aniq aks ettiradi va soʻz yasalish birliklarining atamasi hisoblanadi.

Soʻz yasalishi usullarida yasalgan yasama soʻzlar maʼlum tarkibga ega boʻladi. Yasama soʻzning tarkibi uni tashkil etuvchi qismlardan iborat boʻladi.

¹ Berdialiyev A. Oʻzbek tilida soʻz yasovchi qoʻshma affikslar. Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. –Toshkent, 1970. – B.12.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, yasama so‘z so‘z yasalish asosiga so‘z yasovchini qo‘shish bilan hosil qilinadi. Binobarin, har bir yasama so‘z ana shu ikki qismdan iborat bo‘ladi, ya‘ni so‘z yasalish tarkibi so‘z yasalish asosi va so‘z yasovchidan tuziladi.

Yasama so‘z tub so‘z, shuningdek, yasama so‘zdan hosil qilinishi mumkin. Lekin har qanday holatda ham yasama so‘zning tarkibi ikki qism (komponent)dan iborat bo‘ladi. Masalan, *terim* so‘zining so‘z yasalish tarkibi *ter* (so‘z yasalish asosi) va *-im* (so‘z yasovchi)dan tashkil topgan. *Terimchi* so‘zining so‘z yasalish tarkibi *terim* (so‘z yasalish asosi) va *-chi* (so‘z yasovchi)dan iborat. So‘z yasalish asosi bilan so‘z yasovchining mohiyatini to‘g‘ri belgilash, umuman, so‘z yasalishining, yasama so‘zning mohiyatini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligida ancha vaqtlargacha so‘z yasalish asosi birligi qayd etilmas edi. Faqatgina so‘z yasovchi affikslarning u yoki bu so‘z turkumiga oid so‘zlardan (masalan, otdan, sifatdan yoki fe‘ldan) so‘z yasashi qayd etilar edi. Lekin bu narsa so‘z yasalishi bilan bog‘liq biror hodisaning, jumladan, so‘z yasalish asosining mohiyatini aks ettira olmaydi. Chunki birinchidan, hech qaysi so‘z yasovchi biron turkumga oid so‘zlarning hammasidan so‘z yasamaydi. Ikkinchidan, so‘z yasalishiga asos bo‘ladigan so‘zni ot, sifat, fe‘l deb atash so‘z yasalish asosining material tomoninigina aks ettiradi va so‘z yasalishi nuqtai nazaridan, so‘z yasalish asosining mohiyati nuqtayi nazaridan hodisani (so‘z yasalishi birligini) aks ettira olmaydi.

Shuningdek, so‘z yasalish asosiga nisbatan so‘z, leksema terminlari aralash qo‘llanib kelmoqda. Hatto, yasama so‘zning o‘zi ham «so‘z», «leksema» deb nomlanib kelmoqda. Bu ham lisoniy birlik va nutq birligini farqlamaslik bilan bog‘liqdir. Lekin bunga yo‘l qo‘ymaslik kerak, aks holda yasama so‘z tarkibiy qismlarining va yasama so‘zning o‘z mohiyati belgilanmay qolaveradi. Oqibatda so‘z yasalishi, yasama so‘z bilan bog‘liq boshqa hodisalarning mohiyatini belgilash mumkin bo‘lmaydi.

Keyingi vaqtlarda yaratilgan ishlarda (boshqa tillarga oid ishlar ta‘sirida) so‘z yasalish asosi hodisasiga e‘tibor berilla boshlandi. Lekin aytib o‘tilgan

hodisalar bilan birga, soʻz yasaliş asosining ham mohiyati aniq va toʻgʻri talqinini topgani yoʻq.

Soʻz yasaliş asosi soʻz yasaliş sathiga xos birlik ekan, uning mohiyati shu nuqtai nazardan belgilanishi lozim boʻladi. Bu esa, oʻz navbatida, yasama soʻzning mohiyatini belgilashga yoʻl ochadi.

Soʻz yasaliş asosi haqida gap borganida, birinchi navbatda, uning qanday birlik ekani, yaʼni lisoniy birlikmi yoki nutq birligimi, leksemami yoki soʻz ekanini aniq belgilash (u haqda aniq xulosaga ega boʻlish) shart. Shundagina soʻz yasaliş bilan bogʻliq boshqa hodisalarni ham toʻgʻri va aniq yoritishga yoʻl ochiladi.

Oʻzbek tilshunosligida soʻz termini «leksema» maʼnosida ham, «soʻz shakl» maʼnosida ham qoʻllanilib kelindi va hozir ham bu hol maʼlum darajada davom etyapti. Binobarin, yasama soʻzning asosi boʻluvchi qismning mohiyatini shu nuqtai nazardan aniq belgilash kerak boʻladi. Shu asosda soʻz yasalişining mahsuli qanday birlik ekani ham hal etiladi.

«Soʻz» deganda, umuman, lugʻaviy birlik emas, maʼlum bir (muayyan) grammatik shakldagi lugʻaviy birlik tushunilishi maʼlum. Shu nuqtai nazardan yondoshilsa, soʻz yasaliş asosini soʻz deyish mumkin boʻlmaydi. Chunki u yasama soʻz tarkibida grammatik shaklga ega boʻlmaydi (Soʻz yasaliş asosiga soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshilishining oʻziyoq shundan dalolat beradi). Demak, soʻz yasaliş asosiga nisbatan «soʻz» atamasi (termini) xuddi shu maʼnoda – «soʻz yasaliş uchun asos boʻluvchi lugʻaviy birlik» maʼnosida qoʻllanadi (soʻzshakl maʼnosida emas) va bunday qoʻllanishga eʼtiroz boʻlishi mumkin emas¹.

Yasama soʻz – lisoniy birlik. Soʻz yasaliş asosi va soʻz yasovchining tahlilidan koʻrish mumkinki, soʻz yasovchi soʻz yasalişiga asos boʻluvchi leksemaning muayyan bir maʼnosi asosida undan yangi soʻz hosil qiladi. Yasama soʻzning maʼnosi soʻz yasaliş asosining ana shu muayyan maʼnosi bilan soʻz yasovchining maʼnosi zaminida yuzaga keladi. Shuning uchun ham yasama soʻzning maʼnosini uning tarkibiy qismlari (soʻz yasaliş asosi va soʻz yasovchi) maʼnosi bilan asoslash mumkin boʻladi. Masalan, *bokschi, futbolchi, xokkeychi*

¹ Hojiyev A. Oʻzbek tili soʻz yasaliş tizimi. –Toshkent: Oʻqituvchi, 2007. –B. 18.

soʻzlarining maʼnosiga eʼtibor bering. Lekin bu holni yasama soʻzning maʼnosi uning tarkibiy qismlari maʼnosiga teng (shu qismlar maʼnosining oddiy qoʻshiluvidan yuzaga keladigan maʼno) deb tushunmaslik kerak. Yasama soʻzning maʼnosi soʻz yasash asosi maʼnosi bilan soʻz yasovchining maʼnosi sintezidan yuzaga keladi. Shuning uchun ham yasama soʻz maʼnosi (sememasi) tarkibida soʻz yasash asosi yoki soʻz yasovchining maʼnosi tarkibida boʻlmagan sema mavjud boʻladi. Masalan, *pulemyotchi*, *buldozerchi*, *tankchi* soʻzlarining hammasida *–chi* soʻz yasovchisi umuman shaxs maʼnosi bilan qatnashyapti. Shu bilan birga, bu soʻzlarning har birida bu shaxsning faoliyatini qayd etuvchi sema ham bor: *buldozerchi* – buldozerni boshqaruvchi (haydovchi) shaxs; *pulemyotchi* – pulemyot otuvchi shaxs; *tankchi* – tank ekipaji aʼzosi. Bu narsa yasama soʻzning oʻziga xos shakl (ifoda) va maʼno butunligiga ega boʻlgan lisoniy birlik - leksema ekanini koʻrsatadi.

Bu borada koʻp taʼkidlanganidek, tildagi maʼlum usul va vositalar yordamida yangi soʻzlar hosil qilish soʻz yasalishi deyiladi. Soʻz yasalishi tilda mavjud boʻlgan soʻz yasalishi tarkibini, soʻz yasash usullarini oʻrganadi. Soʻz yasalishi tizimi morfemika bilan uzviy bogʻlangan. Chunki soʻzning maʼnoli qismlari – morfemalar (oʻzak morfema va affiksial morfema) tilda yangi soʻz hosil qilishning eng muhim elementlari hisoblanadi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida morfemika boʻlimidan tashqari soʻz yasalishi ham alohida soha sifatida oʻrganib kelinmoqda. Maʼlumki, soʻz yasalishi boʻlimida soʻzlarning yasash usullari haqida fikr yuritiladi. Soʻz yasash usullari esa affiksatsiya (qoʻshimcha qoʻshish orqali), kompozitsiya (soʻzlarni qoʻshish orqali), abbreviatura (soʻzlarni qisqartirish orqali) kabilardir. Soʻz yasalishi umumtilshunoslikda derivatsiya (soʻz yasalishi) nomi bilan yuritilib kelmoqda. Hozir derivatologiya alohida soha boʻlib, leksik va sintaktik derivatsiyaga ham ajratilib oʻrganilmoqda.

Derivatsiya hodisasi diaxron (tarixiy) va sinxron (hozirgi) usullariga ega. Biz hozirgi sinxron yasash masalasi bilan qiziqamiz. Chunki diaxron soʻz yasalishi til tarixining oʻrganish obyekti hisoblanadi.

Aslida derivatsiya soʻz yasalishini ham (*ishchi, ishla, kitobxon* kabi), ichki imkoniyat asosida yangi leksema paydo boʻlishini ham (*kelinchak, ixtisoslashuv, oʻqigan, birov*) kabilarni ham oʻrganadi.

Soʻz yasalishi bu sof nutqiy hodisa, nutqiy jarayon. U derivatsiyaning asosiy qismini tashkil etadi. Biroq uning lisoniy asosi ham bor. Shu bois u til va nutqqa birday daxldor hodisa sanaladi.

Soʻz yasalishi atamasi ikki maʼnoni anglatadi: a) soʻz yasash jarayoni atamasi; b) ushbu jarayonni oʻrganuvchi soha.

Aslida soʻz yasalishi deganda qanday usul bilan boʻlsa ham yangi soʻz hosil qilish tushuniladi. Masalan, affiksatsiya usuli bilan: *oʻquvchi, bemaza, paxtakor* kabi; kompozitsiya usuli bilan: *bilakuzuk, gultojixoʻroz* kabi.

Oʻzbek tilida soʻz yasalishining asosan quyidagi usullari mavjud: affiksatsiya usuli (asosga yasovchi qoʻshimcha qoʻshish yordamida): *bil+im, tilak*; kompozitsiya usuli (ikki va undan ortiq soʻzning qoʻshilishi orqali soʻz yasash): *qora+qurt, oltingugurt*; abbreviatsiya usuli (qisqartma qoʻshma soʻzlar): *pedkengash, ijroqoʻm*.

Lekin soʻz yangi maʼno kasb etishi natijasida ham hosil boʻlishi mumkin. Masalan: *ishbilarmon* soʻzi hozir yangi maʼno kasb etmoqda. Yaʼni, *tadbirkor* maʼnosida qoʻllaniladi. Lekin bu yerda yangi soʻz hosil boʻlgani yoʻq. Demak, soʻz yasalishi, yasama va yangi maʼno kasb etgan soʻzlarning leksemalashuvi hodisasini farqlash kerak ekan.

Derivatsiya hodisasida ham tarixiy va zamonaviy soʻz yasalishni farqlash kerak.

Hozirgi (sinxron) derivatsiyada yasama soʻz bilan derivatsion (soʻz yasash) qolipida aloqa mavjud. Qolipning shakliy va mazmuniy tomoni hosila soʻzda oʻz izini qoldirgan boʻladi. Masalan: *kitobchi* yasama soʻzida *kitob* (ot) + *chi* – kasbi bilan shugʻullanuvchi shaxs oti yasalgan.

Tarixiy derivatsiyada yasama soʻzning shakliy va mazmuniy tomoniga mos qolip boʻlmaydi. Masalan: *qishloq, ovloq* kabi soʻzlar anglatgan maʼnoni ularni tashkil etuvchi derivatsion qolip asosida aniqlab boʻlmaydi. Chunki ular tarixiy

yasalish asosida yuzaga kelgan. Masalan, *qorovul, yasovul, bakovul* soʻzlarida ham xuddi shu holatni koʻramiz.

Soʻz yasash (derivatsion) qolip mavjud boʻlib, har qanday yasama soʻz shu qolip asosida paydo boʻladi. Hosila soʻz lisoniylashib, oʻz qolipidan uzilib ketsa ham, ular bilinar-bilinmas qolip bilan bogʻlanib turadi.

Soʻz yasash qolipi 2 uzvdan tashkil topadi:

- a) qolipning shakliy tomoni;
- b) qolipning mazmuniy tomoni.

Yasama shakl va mazmun biror qolipga muvofiq kelsa, unga shu qolip hosilasi deb qarash mumkin. Masalan: narsa-qurol otini yasovchi affikslardan hosil boʻlgan qolip: *oʻroq, taroq, kurak* kabi. Lekin *soʻroq, bilak, tilak* bu qolipga ziddir.

Soʻz yasash qolipining shakliy tomoni ikki qismdan tashkil topadi:

1) yasovchi asos; 2) yasovchi vosita. Masalan: *taroqchi* otida shu kasb bilan shugʻullanuvchi shaxs maʼnosini anglatuvchi asos *taroq* boʻlib, bu yasovchi asos, *-chi* esa yasovchi vosita sanaladi. Derivat-operant kabi. Asos mustaqil leksema, yasovchi vosita affiks boʻladi.

Qolipning yasovchi asosi, albatta, mustaqil soʻz, yasovchi vosita qismi esa soʻz ham, qoʻshimcha ham boʻlishi mumkin. Masalan, qoʻshma (otboqar), juft (qozon-tovoq) soʻz yasash qoliplarida asos ham, vosita ham soʻz.

Yasovchi affikslarning soʻz yasash darajasi bir xil emas. Ayrim affikslar juda koʻp miqdorda yangi soʻzlar yasash uhun xizmat qilsa, baʼzilari miqdor jihatdan kamroq soʻz yasaydi yoki soʻz yasash xususiyatini hozir umuman yoʻqotgan. Yasovchi affikslar shu jihatdan uch turga boʻlinadi: 1) ***unumli affikslar***. Juda koʻp soʻz yasashga xizmat qiladi: *-chi (ish-chi, jang-chi, boʻyoq-chi), -li (aql-li, bola-li, gʻayrat-li), -la (tuz-la, oq-la, joy-la), -ma (boʻl-ma, mosla-ma, qatla-ma), -lik (bola-lik, yosh-lik, tinch-lik, doʻst-lik) kabi*; 2) ***kamunum affikslar***. Kamroq soʻz yasashga xizmat qiladi: *-q (taro-q), -qin (tosh-qin), -gʻin (yon-gʻin), -kash (mehnat-kash), -in (ek-in), -un (tug-un) kabi*; 3) ***unumsiz affikslar***. Hozirgi oʻzbek tilida yangi soʻz yasash xususiyatini yoʻqotgan affikslar: *-vul (qoro-vul), -chil (ep-chil), -dak (yugur-dak) kabilar*.

Hozirgi kunda ba'zi tilshunos olimlar, jumladan, A.Hojiyev so'z qo'shish (kompozitsiya) usulida so'z yasalishi hodisasini inkor etmoqdalar. Tilshunos A.Hojiyevning fikr-mulohazalari to'g'risida to'xtalib o'tishni joiz topdik. O'zbek tili so'z yasalishiga oid ishlarning hammasida so'z yasashning "kompozitsiya usuli" qayd etiladi va u so'z yasashning mahsuldor usuli sifatida ta'riflanadi. Biroq, olimning ta'kidlashicha, hodisaga bevosita o'zbek tilining o'z materiallaridan kelib chiqib yondashilsa, bu tilda so'z yasashning "kompozitsiya usuli" deb atash mumkin va lozim bo'lgan usuli yo'qligi ma'lum bo'ladi.

Kompozitsiya usuli bilan so'z yasash deganda, so'z qo'shish yo'li bilan so'z yasash tushuniladi. O'zbek tilida ikki mustaqil so'z ma'lum grammatik shaklda birikadi va birikuvchi so'zlar o'rtasida grammatik aloqa borligi sezilib turadi. Bunday birikish (bog'lanish) natijasida lug'aviy birlik, ya'ni leksema emas, balki sintaktik birlik – so'z birikmasi yoki gap hosil bo'ladi. Shu faktning o'ziyiq ko'rsatadiki, "so'z qo'shish bilan so'z yasalishi" (shunday so'z yasash usuli) haqida gap bo'lishi mumkin emas¹.

Lingvistik adabiyotlarda ana shu narsa qayd etiladi. Bunga esa keyinchalik yetarli e'tibor berilmadi. Ayrimlar bu bilan butunlay hisoblashmay, avvalgicha fikr yuritaverdilar. Ba'zilar esa bu gapda asos borligini sezib, "so'z qo'shish" (slovoslojeniye) o'rnida "asos qo'shish" (osnovoslojeniye), "o'zak qo'shish", "leksema qo'shish" terminlarini qo'llashni ma'qul ko'rdilar. Lekin bular masalaning mohiyatini oydinlashtirmaydi, so'z yasalishining shunday usuli borligini tasdiqlay olmaydilar. Chunki o'zbek tilida "asos qo'shish" yoki "o'zak qo'shish" hodisasining o'zi yo'q. Bu terminlar rus tiliga oid ishlar ta'sirida qo'llanib kelindi.

Shunday savol tug'ilishi mumkin: "O'zbek tilida sodda so'zlardan farqlanuvchi va "qo'shma so'z" deb atalayotgan so'zlar ko'p miqdorda borku, bularning yasalish yo'lini qanday usul deyish mumkin?"

Avvalo, aytish kerakki, faqatgina bir narsa, ya'ni tarkibida lug'aviy ma'noli birdan ortiq qism (komponent) borligigina bunday so'zlarning maxsus usul bilan

¹ Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. –Toshkent: O'qituvchi, 2007. –B. 8.

yasalishi tasavvurini beradi. Masalan, *to'g'ri* so'zi affiks qo'shish usuli bilan (to'g'ri+la) yuzaga kelgan bo'lsa, *otquloq* so'zi ikki so'zni qo'shish (ot+quloq) yo'li bilan hosil qilingan, degan tasavvurni beradi. Aslida esa birdan ortiq lug'aviy ma'noli qismga (so'zga) egalik bunday so'zlarning maxsus so'z yasash usuli bilan hosil qilinishini ko'rsatuvchi belgi bo'la olmaydi. Hatto, bunday so'zlarni "qo'shma so'z" deb atalishining o'zi ham shartli bo'lib, so'z yasash usuliga ko'ra emas, balki sodda so'zlardan farqli belgisiga ko'radir. Demak, "sodda", "qo'shma" degan so'zlarning o'zi so'z yasash usulini ko'rsata olmaydi. Shunday ekan, "qo'shma so'z" ekanligiga qarab, ularni maxsus usul bilan yasaladi, deb o'ylash va bu usulning qanday usul bo'lishi haqida so'roq qo'yishning o'zi o'rinli bo'lmaydi deb e'tirof etadi.

To'g'ri, "qo'shma so'z" deb atalayotgan so'zlar ham ma'lum yo'l (yo'llar) bilan yuzaga keladi. Lekin tilda biror so'zning u yoki bu yo'l orqali, biror hodisa tufayli yuzaga kelishi bilan maxsus usul asosida yangi so'z hosil qilish hodisasini farqlash kerakligi aytiladi. Olim bunda quyidagilarga e'tibor berilishi lozimligini uqtiradi.

Birinchidan, so'z yasash usuli bilan yangi so'z hosil qilishda so'z yasovchi maxsus vosita (birlik)dan foydalaniladi, shu birlik so'z yasovchi hisoblanadi. Masalan, *suvchi*, *tekisla* so'zlaridagi *-chi* va *-la* so'z yasovchi. "Qo'shma so'z" deb ataluvchi so'zlarda bunday holat yo'q. *Itburun*, *boyo'g'li*, *qirqog'ayni* kabilarda so'z yasovchi qism (birlik) yo'q. Binobarin, ular so'z yasalish tarkibiga ega emas va bu so'zlarning yasalish usuli bor, ular bir usulda yasalgan so'zlar, deyish mumkin emas.

Ikkinchidan, so'z yasash usuli bilan hosil qilingan so'z (yasama so'z) so'z yasovchi yordamida ma'lum bir so'zdan hosil qilinadi va bu so'z (yasama so'zning shu qismi) so'z yasalish asosi hisoblanadi. Masalan, *rohatlanmoq* so'zi *rohat* so'zidan yasalgan. Bu so'zda *rohat* – so'z yasalish asosi, *-lan* – so'z yasovchi qo'shimcha. Har qanday yasama so'z ana shunday ikki qismdan – so'z yasalish

asosi va soʻz yasovchi qismdan iborat boʻladi¹. “Qoʻshma soʻz”lar esa bunday tarkibga ega emas. Demak, ular soʻz yasash vositasiga ham, usuliga ham ega boʻlmaydi.

Uchinchidan, maxsus usul bilan, maxsus birliklar yordamida yasalgan soʻzlarning maʼnosi uning qismlari maʼnosidan yuzaga keladi, uning maʼnosini qismlari maʼnosida asoslash mumkin boʻladi: *dutorchi* – dutor chaluvchi (sozanda), *ogʻirlashdi* – vazni ogʻir boʻldi, *chiroyli* – yaxshi (yoqimli) chiroyga ega va boshqalar. “Qoʻshma soʻz”larda bunday holat yoʻq: *itogʻiz* (gulning nomi) soʻzining maʼnosini uning qismlari (*it*, *ogʻiz* soʻzlari) maʼnosi bilan asoslab boʻlmaydi.

Ana shu uchta faktning oʻziyiq oʻzbek tilida soʻz yasalişining “kompozitsiya usuli” (yoki soʻz qoʻshish usuli) deb atash mumkin boʻlgan usuli yoʻqligini toʻla tasdiqlaydi.

“Qoʻshma soʻz”larning yuzaga kelishi, paydo boʻlishi masalasiga kelsak, buning yoʻli turlicha. Jumladan, ularning baʼzilari oʻzga tildan shunday holicha oʻzlashtirilgan boʻladi. Masalan, *gulbeor*, *gultojixoʻroz*, *oromijon* soʻzlari tojik tilidan oʻzlashgan. Ular oʻzbek tilining yasama soʻzlari hisoblanmaydi. Demak, bularga nisbatan “qoʻshma” (qoʻshish) soʻzini qoʻllash ham toʻgʻri boʻlmaydi.

Ustqurma soʻzi ruscha “nadstroyka” soʻzini kalkalash yoʻli bilan hosil qilingan. Kalkalash soʻz hosil qilishning bir yoʻli. Lekin soʻz yasash usuli emas. Shuning uchun ham *ustqurma* soʻzi yasama soʻzlarning umumiy maʼnosi bilan birlashuvchi biron tipga (turiga) kirmaydi; soʻz yasaliş asosi va soʻz yasovchidan iborat tarkibga ega emas. Bu soʻz, tarkibida ikkita lugʻaviy maʼnoli qism borligidan qatʼiy nazar qoʻshma soʻz hisoblanmaydi (chunki “soʻz qoʻshish” yoʻli bilan hosil qilinmagan). Affiksatsiya usuli bilan yasalgan soʻz deyish ham mumkin emas. Chunki u “ustqur”dan *-ma* affiksi yordamida yasalayotgani yoʻq. Agar tarkibiy qismlarining xususiyatiga koʻra (ikkita lugʻaviy maʼnoli qism va bir affiks borligiga koʻra) soʻz yasash usuli belgilanadigan boʻlsa, bu soʻzni “kompozitsiya-

¹ Hojiyev A. Oʻzbek tili soʻzning morfologik tarkibi masalasi. Oʻzbek tili va adabiyoti j. –Toshkent, №1. 1988. – B.29-33.

affiksatsiya usuli” bilan yasalgan deyishga to‘g‘ri keladi. Biroq bunday deb ishlatish mumkin emas.

«Qo‘shma so‘z»larning anchagina qismi so‘z birikmasining (sintaktik birlikning) lug‘aviy birlikka (leksemaga) o‘tishi natijasida yuzaga kelgan: *belbog‘*, *mingboshi*, *olmaqoqi*, *tokqaychi* kabilar. Bunday so‘zlarning yuzaga kelishi (so‘z birikmasining so‘zga aylanishi) ma’lum muddat (jarayon) o‘tishi bilan bog‘liq va u hozirgi sinxron so‘z yasalishiga kirmaydi. Bunda har bir so‘zning yuzaga kelishi alohida amalga oshadi. Demak, bu hodisa ham sistemani tashkil etmaydi. Bunday so‘zlar ham so‘z yasalish asosi va so‘z yasovchi qismdan iborat tarkibga ega bo‘lmaydi.

“Qo‘shma so‘z” larning ayrimlari ma’lum narsani boshqa biror narsa yoki belgiga nisbatlash, undagi biror belgi asosida nomlash orqali hosil qilingan: *oybolta*, *devqomat*, *qizilishton*, *mingoyoq* va boshqalar. Lekin bunday so‘zlar so‘z yasalish asosi va so‘z yasovchi qismdan iborat tarkibga ega bo‘lmaydi. Ularning (shu so‘zlar bildirgan narsaning) nima uchun shunday atalishi har bir so‘zning o‘z doirasida izohlanadi. Qushning nima uchun *qizilishton* deb atalishi shu qushning o‘zidagi (o‘ziga xos) belgisi bilan asoslanadi. Belgi esa so‘z yasash birligi emas.

Bu faktlar ham o‘zbek tilida so‘z yasashning “kompozitsiya usuli” deb atash mumkin va lozim bo‘lgan alohida usuli yo‘qligi, shuningdek, tarkibida birdan ortiq lug‘aviy ma’noli qism bo‘lgan so‘zlarni “qo‘shma so‘z” deb atashga asos yo‘qligini ham ko‘rsatib o‘tadi.

Har bir yasama so‘z so‘z yasalish asosi va so‘z yasovchidan iborat tarkibga ega bo‘lishini ko‘rdik. Ana shu tarkib so‘z yasashning modeli hisoblanadi. “Qo‘shma so‘z” deb atalayotgan so‘zlarda esa so‘z yasash modeli yo‘q ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Ammo qo‘shma so‘zlarga oid ishlarda qo‘shma so‘zlarning yasalish modeli borligi haqida gapiriladi va bunda “qo‘shma so‘z”ning tarkibi qaysi turkumga oid so‘zdan bo‘lishi nazarda tutiladi. Masalan, *ko‘zoynak* – ot+ot modeli, *oqqush* – sifat +ot modeli, *qirqog‘ayni* – son+ot modeli deb ta’riflanadi. Biroq bularda hech qanday so‘z yasash modeli yo‘q va ular tarkibining qaysi so‘z turkumiga oid

soʻzlardan boʻlishi soʻz yasalishi nuqtayi nazaridan hech narsani belgilamaydi deb keltiradi.

Bir xil modeldagi soʻz birikmalaridan kelib chiqqan ayrim soʻzlarning bir komponenti, odatda, keyingi komponenti aynan bir soʻzdan boʻladi. Natijada, u takrorlanuvchi qismdek, aniqrogʻi, soʻz yasovchi qismdek tuyuladi: *karvonboshi*, *ishboshi*, *joʻraboshi*, *mingboshi*, *yurtboshi* kabilar. Lekin bularda soʻz yasovchi qism ham, yasama soʻzga xos tarkib ham yoʻq. Hatto, bunday soʻzlarning ayrimlarida soʻz birikmasi ekanligini koʻrsatuvchi, ikkinchi komponentdagi *i* ham qoʻllanmay, qismlar (bir lugʻaviy birlik sifatida) qoʻshib yozilaveradi deb quyidagi misollarni keltiradi: *Rosti, mening ham elkamdan tegirmontosh tushganday boʻldi* (A.Dilmurodov). *Olmos charxtoshda charxlangan keskich bilan kerakli tashqi diametr charxlanib...* (“Yangi texnika” jur.). ...V-VI asrlarga oid deb qabul qilingan *Enasoy qabrtoshlaridir* (gazetadan).

Olim bunda, avvalo, ularni, *i* qoʻshimchasisiz qoʻllanishiga qarab, soʻzga aylangan deb qatʼiy hukm chiqarish toʻgʻri boʻlmaydi. Chunki birinchidan, bunday belgisiz qoʻllanish (*tegirmon toshi* emas, *tegirmontosh* kabi) koʻproq ogʻzaki nutqqa xos boʻlib, *tegirmon toshi* shaklida (soʻz birikmasi sifatida) qoʻllanish asosiy ekanini inkor etib boʻlmaydi. Ikkinchidan, *tegirmontosh* tarzida qoʻllangan taqdirda ham unda soʻz birikmasiga xos xususiyat sezilib turadi. Uchinchidan, *tegirmontosh*, *charxtosh*, *qayroqtosh* kabilarni soʻz deb tan olgan taqdirda ham ularni yasama soʻz, tarkibidagi “tosh”ni soʻz yasovchi deyish mumkin emas. Bunda faqat soʻz birikmasining soʻzga aylanishi haqida gapirish mumkin, xolos deb tushuntiradi.

Adabiyotlarda gap shaklidagi qoʻshma soʻzlar mavjudligi aytilib, *goʻshkuydi* (ovqat nomi), *ochildasturxon* (ertak nomi) kabilar misol qilib koʻrsatiladi. Lekin bular, avvalo, juda kam. Qolaversa, ...bu fakt ham kompozitsiya usuli bilan soʻz yasash hodisasi emas. Bunga misol sifatida: *Yigitlarga aytib, seni bir talqontuydi qildirmasammi!* (A.Obidjon). *Xona ichida 5-6 daqiqa chigilyozdi mashqlarni bajargach,...* koʻchaga chiqamiz (“Oʻzb. ovozi” gaz.). ...*Hasan*

qayg'ichi xon amaldorlari haqida **ichakuzdi** hangomalar aytardi (S.Siyoyev) kabilarni keltirib o'tadi.

Bularni *okkazonal yasalish* deb, *lisoniy birlik* emas, *nutq birligi* deb qarash to'g'ri bo'ladi deb hisoblaydi.

Yana hozirgi tilimizda tarkibida aynan bir so'z mavjud bo'lgan *erktalab*, *suvtalab*; *noziktabiati*, *og'irtabiati*; *odamsifat*, *maymunsifat*; *ishbay*, *kunbay*; *qo'ymijoz*, *itmijoz*, *sovuqmijoz*; *erksevar*, *issiqsevar* kabi so'zlarni tahlil qilib, bular, odatda, "qo'shma so'z" deb qaraladi, ular tarkibida qo'llangan *talab*, *sifat*, *bay*, *mijoz*, *sevar* kabi so'zlar shu "qo'shma so'z"larni yasovchi deb tushuniladi.

Avvalo, tarkibida aynan bir so'z qo'llangan bunday so'zlar sanoqlidir, ya'ni tarkibida *talab*, *sifat*, *bay*, *mijoz* kabi so'zlar bo'lgan "qo'shma so'z"lar. Qolaversa, ular tarkibida qo'llanuvchi so'zlar so'z yasash uchun xizmat qilmaydi. Ularning ayrimlari tarkibidagi har bir so'z o'z ma'nosi bilan qatnashadi va so'z birikmasi ekanligi sezilib turadi: *og'ir tabiati*, *engil tabiati*, *dehqon tabiati*; *oq ko'ngil*, *qora ko'ngil*, *ochiq ko'ngil* kabi. Birgina *talab* so'zi qatnashgan quyidagi misollarga e'tibor beraylik: *ravnaqtalab*, *farzandtalab*, *yomg'irtalab*, *echimtalab*, *erktalab*, *savobtalab*, *e'tibortalab*, *mehnattalab*, *maoshtalab*, *ishtahatalab*, *hurmattalab* va boshqalar.

Bu kabilarni "qo'shma so'z" deyish qismlarining qo'shib yozilishi, tarkibidagi *talab*, *sifat*, *bay*, *sevar*, *mijoz* kabilarni "qo'shma so'z" yasovchi deb tushunish oqibatidir deb hisoblaydi. Aslida esa, ular so'z qo'shish yo'li bilan hosil qilingan yangi so'zlar emas, shuningdek, birdan ortiq so'zlar bilan qo'llanayotgan so'zlar so'z yasovchi emasligini dalillashga harakat qiladi.

Xullas, o'zbek tilida, affikslardan tashqari, so'z yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'z (morfema)lar ham bor. Lekin ular ko'p emas. Shuningdek, ular yordamida yasalgan so'zlar ham oz miqdorda.

Savol tug'ilishi mumkin va tabiiy: "Yordamchi morfemalar yordamida so'z yasalishini, affikslar bilan so'z yasalishidan farqlagan holda, so'z yasalishining alohida usuli deb qarash va alohida nom bilan atash kerakmi, shunga ehtiyoj bormi?" Bizningcha, bunday qilish shart emas. Chunki, birinchidan, yuqorida aytib

o‘tilganidek, bunday birliklar (so‘z yasovchilar) juda ko‘p emas. Ikkinchidan, affikslar yordamida so‘z yasalishi va yordamchilar bilan so‘z yasalishining modeli asos e‘tibori bilan bir xil – “so‘z yasalish asosi+so‘z yasovchi” modelidadir. Demak, so‘z yasalishi va yasovchilar haqida gap borganda, so‘zlar o‘zbek tilida, asosan, affikslar yordamida yasalishi, shu bilan birga, so‘z yasovchi yordamchi morfemalar ham borligini aytib, ular orqali hosil qilinuvchi yasama so‘zlarning mohiyatini tahlil etish bilan kifoyalanish mumkin.

Olimning bildirgan mulohazalaridan ma‘lum bo‘ladiki, “qo‘shma so‘z” deb ta‘riflanayotgan so‘zlarning ko‘pchiligi turli hodisa, yo‘llar bilan (masalan, so‘z o‘zlashtirish, so‘z birikmasining so‘zga aylanishi va boshqalar) yuzaga kelgan. Ular yasama so‘z emas. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan so‘z (qo‘shma so‘z) deb qaralayotgan birliklarning ayrimlari so‘z birikmasi hisoblanadi. Ayrimlari esa okkazional yasalish (nutqiy hodisa)dir.

Yordamchi so‘zlar yordamida so‘z yasalishi ham kompozitsiya (so‘z qo‘shish) usuli bo‘lmaydi.

Olimning ushbu so‘z yasalishi, shu jumladan, ot yasalishi bo‘yicha ham, mulohazali fikrlari hozirgi kun tilshunosligi oldiga dolzarb mavzulardan birini qo‘ymoqda. Olim o‘z fikrlarini isbotlash maqsadida o‘zbek tili materiallari asosida daliliy misollarni keltirgan, shunday bo‘lsa ham, ko‘pchilik olimlar bu qarash bilan hamfikir ravishda ish yuritmayotgani kuzatiladi. Bizningcha, olimning ushbu so‘z yasalishining kompozitsiya usuli to‘g‘risidagi qarashlari to‘laqonli bo‘lmasa ham mantiqiy asosga ega.

1.2. Qo‘shma so‘z yasalish modellari

Kompozitsiya yo‘li bilan so‘z yasash kompozitivlar - qo‘shma so‘zlar yaratish bo‘lib, bunda ikki (yoki undan ortiq) so‘zning qo‘shilishi yangi leksik birlik - leksemani hosil qiladi. So‘z yasashning bu tipi ham o‘zbek tilidagi faol yo‘llardandir. Qo‘shma

soʻzning komponentlari, tarkibidagi qismlari, ayrim soʻz (tub soʻz yoki yasama soʻz) tusida boʻladi: bu element shu koʻrinishida boshqa kombinatsiyalarda oʻzak yoki negiz vazifasida kela oladi. Lekin bu elementning ikki holati - ayrim soʻzligi va qoʻshma soʻz tarkibida kelishi (mustaqil soʻzligi va soʻzning qismi boʻlishi) bir-biridan jiddiy farqlanib turadi.

Qoʻshma soʻzning koʻpi tashqi tomondan «aniqlovchi-aniqlanmish» sxemasidagi soʻz birikmasiga oʻxshaydi, hatto shunday omonimik hollar ham borki, shu shakldagi kompleksning qoʻshma soʻzmi yoki soʻz qoʻshilishimi ekanligi turli vositalar orqali aniqlanadi: bunda semantik-grammatik, intonatsion vositalar farqlovchilik rolini bajaradi. Har holda omonimik koʻrinishlar ham toʻla, aniq ajralib turish xususiyatiga ega boʻladi. Masalan, *qora qovun*: soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz: qora tUSDagi qovun va qovunning bir turi. Qiyoslang: *baribir* kompleksi hozirgi tilda - bir soʻz (leksikalizatsiya). Lekin u aslida (shuningdek, hozirgi tilda ajratilgan holda qoʻllangan oʻrinlarda) ikki soʻzdir: *bari* (ega), *bir* (kesim). Birinchi holatda, tabiiy bir soʻz - ikki oʻzak morfemaning birikib ketishidan tugʻilgan bir soʻz sanaladi, lekin u, genetik jihatdan qaraganda, grammatik aloqaga kirishgan ikki mustaqil soʻzdir.

Qoʻshma soʻz bir butun leksik maʼno - bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish - grammatik strukturasi ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi. Demak, u bir soʻzdir, uning komponentlari - qismlari orasida grammatik aloqa yoʻq (lekin semantik aloqa bor), u har qanday soʻz qoʻshilmasida - gapda, soʻz birikmasida - bir sintaktik funksiyani bajaradi. Qoʻshma soʻz, sodda soʻzlar kabi, tilning bir birligi boʻlib, undan nutqda har gal tayyor leksik material sifatida foydalanamiz, soʻz birikmasi esa bunday tayyor hodisa emas: u nutq jarayonida maʼlum qoidalar asosida hosil qilinadi. Soʻz birikmasidagi har bir komponent, mustaqil soʻz oʻzaro

grammatik aloqaga kirishgan bo‘ladi, demak, bu sintaktik hodisadir. Masalan, *paxtaning guli*: aniqlovchi + aniqlanmish.

So‘z birikmasi bilan qo‘shma so‘z orasidagi fonetik farqlanish sezilarli, jiddiy xarakterga ega emas. Odatda, fonetik yaxlitlanish so‘z birikmasida ham, qo‘shma so‘zda ham, asosan, bir tusda bo‘ladi: *yosh bola* va *tosh bodom* birikuvlarini qiyoslang.

Qo‘shma so‘zning bir turi tug‘ilish jihatidan so‘z birikmasi bilan aloqador, lekin ko‘pi mavjud qo‘shma so‘zlarga analogiya yo‘li bilan, qo‘shma so‘zning tayyor modeliga qarab hosil qilingan.

Qo‘shma so‘zlarda ham yasalganlikning umumiy belgilari – chog‘ishtirishdagi semantik va shakliy bog‘lanish saqlanadi, lekin bu aloqa turli sabablar natijasida (masalan, fonetik o‘zgarish natijasida) sezilmas holga kelishi ham mumkin (soddalanish hodisasi): *tog‘olcha*: to-g‘ol-cha - tog‘-olcha - tog‘olucha, *og‘ayni* - og‘a-ini, *qayni* – qayini - qayin-ini, *bugun* - bu kun, *achchuchuv* – achchiqchuchuv - achchiq-chuchuk (asli - juft so‘z, bir xil salat, shakarob ma’nosida), bu hodisa jonli so‘zlashuvda ko‘proq uchraydi.

1.2. Qo‘shma so‘z qismlari orasidagi munosabatlarning ifodalanishi

Qo‘shma so‘z o‘zining bir qancha xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Qo‘shma so‘zning tarkibidagi komponentlarning o‘zaro munosabati quyidagicha voqelanadi:

1) ular orasidagi grammatik munosabat shu tipdagi so‘z birikmasiga qarab, tarixiy planda belgilanadi; demak, sinxronik jihatdan qaraganimizda, orada bunday munosabat faraz qilinmaydi, chunki bu aloqa saqlangan bo‘lsa, u kompleks so‘z birikmasi bo‘ladi,

ikki soʻz sanaladi. Masalan, *shakar qop* (qoʻshma soʻz, barqaror holatga ega, nutq jarayonida hosil qilinmaydi), *shakarning qopi* (soʻz birikmasi). Komponentlarning grammatik aloqasi, tugʻilish eʼtibori bilan ikki xil: a) tobelanish (komponentlarning munosabati aslida tobelanish yoʻlini koʻrsatadigan qoʻshma soʻzlar): *oʻq ariq, oʻq ilon, suv ilon; qoʻy tikan, choʻl qurbaqa; dala chumchuq, shahar chumchuq, tol chumchuq; yoʻl pashsha, yoʻl chivin, it pashsha* kabi; b) tenglanish (komponentlarning munosabati aslida tenglashishga asoslangan boʻladi): *oʻtin-koʻmir* (yoqilgʻi), *ota-ona, mosh-guruch, soch-soqol*; tarkibli sonlarda: *oʻn besh* (oʻn va besh. Qiyoslang: besh yuz - yuz besh: birinchisi - tobelanish, ikkinchisi - tenglanish: yuz va besh). Bu ikki xil bogʻlanishni chogʻishtirsak, bogʻlanish - birikishning nisbatan tobelanishda kuchli ekanligini koʻramiz: *oʻtin-koʻmir* tipidagi qoʻshilmalarda komponentlarning nisbatan ayrim-ayrimligi aniq sezilib turadi.

Komponentlarning bogʻlanish yoʻllari, ularda bogʻlanishning turli vositalarining ishlatilishi ham bir xil emas: amorf holda (affikssiz) bogʻlanish, affiks yordami bilan bogʻlanish (*toʻy boshi, soʻz boshi* kabi). Affikssiz bogʻlanish eng qadimgi, sodda yoʻl boʻlib, u jonli - soʻzlashuv nutqida koʻp uchraydi.

2) komponentlarning semantik munosabati har xil: xoslik munosabati (*it pashsha, ot toʻrva*), oʻxshashlik (*tosh koʻmir, anjir shaftoli, karnay gul*), oʻringa munosabat (*qoʻqon gul*), biror belgiga munosabat (*achchiq olma*), miqdorga munosabat (*mingoyoq, qirqogʻayni*), harakat va obyekt munosabati (*beshik tervatar, muz yorar, yer teshar*). Bunday munosabatning turi koʻp: (bular har bir turkumning oʻz ichida tahlil qilinadi) birinchi komponent ikkinchisini semantik jihatdan konkretlashtiradi - chegaralaydi (*ilon* - umuman, *oʻq ilon, suv ilon* - shuning turlari), bu bilan bir jinsning ichidagi qismlar - tur maʼnosi ham

kelib chiqadi. Bularda ma'nolarning o'zaro chatishish hodisasi ham bor.

Komponentlarning ma'no munosabati butun kompleksning - tarkibning material tomoniga, so'z turkumiga, ham bog'liq. Masalan, xoslik (keng ma'noda) bildirishda yasaliş ot+ot modelida (*qo'l arra, qo'l mashina, oyoq mashina* kabi), belgiga munosabat bildirishda sifat (yoki: shu funksiyadagi boshqa so'z) + ot modelida (*sassiq sarimsoq - chesnok, oq jo'xori, ko'k no'xat* kabi), miqdorga munosabat bildirishda son (yoki: miqdor bildiruvchi boshqa so'z) +ot modelida bo'ladi.

2) ba'zan qo'shma so'zlar tashqi tomondan bog'li - turg'un, barqaror birikma xarakteriga ega bo'ladi: *temir yo'l*, temirdan qilingan hamma yo'l ham temir yo'l deyilavermaydi, chunki temir yo'l qo'shilmasi toraygan - maxsuslangan, *devor soat* (bunda ham maxsuslanish bor). Qo'shma so'zning leksik-semantik (murakkab tushunchani bir butun holda ifodalovchi) va grammatik butunligi, tilning tayyor materiali sifatida bo'lishi, struktura va semantik funksiya tomonidan ayrim so'z bilan bo'lgan yaqinligi uni turg'un birikma tusiga kirsam ham, lekin bular tilning nominativ funksiyani bajaradigan bir yaxlit elementidir. Demak, tashqi tomondan turg'un birikma tusiga egalik, ularning bir tomoni bo'lib, ular bu holatda ham qo'shma so'z bo'laveradi.

Turg'un birikma odatda ko'chgan ma'noni ko'rsatadi (lekin bunday ko'chish turg'un birikma bo'lishning sharti sanaladigan doimiy belgi emas). Qiyoslang: *zangori olov* (gaz), *zangori kema* (paxta terish mashinasi); *qush tili* (ovqatning nomi), *yer yong'oq, bosh barmoq, o'rta barmoq*. Ular so'z birikmasidan shu tomoni bilan ham ajraladi: so'z birikmasi bunday xususiyatga ega emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, qo'shma so'zning yasama so'z bilan ham, so'z birikmasi bilan ham (ayrim hollardagi tashqi bir xillik), shuningdek, turg'un birikmalar bilan ham aloqasi bor.

3) qo'shma so'zning asosiy qismi ikki komponentlidir. Bundagi har bir komponent qanday tusda bo'lishiga (o'zak + o'zak, o'zak + negiz va b.), bu qo'shilishda ayrim so'zlik holatidan farqlanishiga va boshqa xususiyatlariga (yangi ma'no, shakl jihatdan oxirgi qismininggina o'zgarishi, oraga so'z kirmasligi, tartibining, odatda, turg'un bo'lishi va b.) qaramay, mustaqil leksemalik holati bilan munosabatini saqlab turadi, u so'z tusida bo'ladi.

Ikkidan ortiq so'zdan tuzilgan qo'shma so'zlar, umuman, kam uchraydi, shuningdek, unga (juft so'zga ham) affiks qo'shish yo'li bilan (qo'shma o'zakdan) so'z yasash hodisasi ham keng tarqalgan emas. Masalan, *yarim oroldagi* (o'simliklar), *tish-tirnoqli* (*tish-tirnoq* shakli ayrim qo'llanmaydi: u bog'li morfema). So'zning tarkibi uzaygan sayin uning qisqalikka intilish tendensiyasi bu o'rinda ham seziladi (*sariq yog' - sariyog' - saryog'*, *qora yog'och - qayrag'och*). Qo'shma so'zning tarkibida uchraydigan fonetik o'zgarishlar (komponentlarning tutashgan o'rnidagi turli o'zgarishlar, tovush tushishi va b.), umuman olganda, affiksatsiyadagi fonetik o'zgarishlar bilan o'xshash, lekin bunday o'zgarishlarning doirasi qo'shma so'zlarda nisbatan tor. Misollar: *bora oladi - boroladi* (*boraladi*: dialektal shakl), *bosh barmoq - boshmaldoq*, *osh pichoq - achpichoq: sh-ch-ch*, *mosh kichikiri - mochkichiri*. Ko'rinadiki, bunday o'zgarish bilan bog'liq holda soddalanish tug'ilishi ham mumkin.

Komponentlarning soni va boshqa ayrim xususiyatlari jihatidan qo'shma fe'llar (ko'makchi fe'lli turi) boshqacharoq holatga ega: uch (ba'zan undan ortiq) komponentli bo'lishi bularda nisbatan ko'proq uchraydi: *aytib bera qoldi*, *so'zlab tura berdi*, *aytib bera boshladi* (grammatik jihatdan ularning hamma ko'rinishlari ham, baribir, ikki

qismli bo'ladi): ko'makchi fe'llarning asosiy qismi o'z mustaqil so'zlik holati bilan bo'lgan bog'lanishini yo'qotib, so'z shakli (analitik shakl) hosil qilish funksiyasini bajarishga o'tgan (ba'zilarigina bu aloqani hali yo'qotmagan); bu kompleksdan odatda affiksatsiya yo'li bilan so'z yasalmaydi.

4) qo'shma so'zning ma'nosi undagi komponentlarning semantik xususiyati va ichki munosabatning xarakteriga bog'liq: komponentlar, odatda, o'z asl ma'nosi - mustaqil holati bilan aloqasini yo'qotmaydi (ko'chgan ma'no boshqacha xususiyatga ega). Masalan, *oqo'rik* (o'rikning turi), *qo'l arra*, *uch burchak* (termin). Bunda ma'no umumlashish jihatidan qaraladi. Masalan, *qo'l arra* va *qo'l soat* (keng ma'noda: xoslik bildiradi, holbuki, bular semantik ottenkasi bilan farqlanadi), *muz yorar*, *tovon teshar* (harakat va uning obykti): *ot+fe'l: it+qarash: Boy menga it qarash qildi* (G'afur G'ulom), harakat va uning belgisi: ravish vazifasidagi *ot+harakat oti* (bunday qo'shilishlarni ko'rsatishda *ot*, sifat, *fe'l* kabi, so'zning leksik-grammatik kategoriyasini ko'rsatadigan, terminlar shartli ravishda – o'sha so'zlarning mustaqillik holatidagi turkumiga qarab ishlatiladi, holbuki bular qo'shma so'z tarkibida ayrim so'z emas, balki so'zning qismidir). Ko'rinadiki, qo'shma so'zning ma'nosi komponentlarning turi qaysi leksik-grammatik kategoriyaga kirishi bilan ham bog'liq.

5) qo'shma so'zlar *ot*, sifat, fe'llarda keng tarqalgan. Qo'shmalik holati yordamchi so'zlarda ham uchrab qoladi.

6) qo'shma so'z yasash juda keng miqyosda tez rivojlandi, chunki turmushdagi, ongdagi ulkan o'zgarishlar, taraqqiyot natijasida yangi so'zlarga talab-ehtiyoj tug'ildi. Bu ehtiyoj rus tilidan juda ko'p so'zlar olish, shuningdek, yangi so'zlar yasash (shu jumladan, qo'shma so'zlar hosil qilish) yo'li bilan qondirilib kelinmoqda. Yasalgan qo'shma so'zlarning, umuman, yasalmalarning ichida rus

tilidan kalkalash yo‘li bilan (*boshqarma, o‘rinbosar, safdosh* kabi) hosil qilinganlari ham ko‘p. Demak, o‘zbek tili leksikasining (fonetika, grammatika, stilistika kabi boshqa sohalarning ham) rivojlanishida rus tili yetakchilik rolini o‘ynab kelmoqda.

Rus tilidan olingan so‘zlar ichida tarkibi uqiladigan, qismlarga ajraladigan qo‘shma so‘zlar ham ko‘p: *kinolenta, kinokamera, kinoteatr, fotokabinet* kabi.

7) qo‘shma so‘zning komponentlari o‘z turg‘un tartibiga ega. Masalan, otlarda ular, odatda, aniqlovchi+aniqlanmish tartibida joylashgan bo‘ladi (*tish cho‘tka, ko‘k no‘xat*).

8) qo‘shma otlarning bir qismi konversiya hodisasi bilan bog‘lanadi (konversiya – bir leksik-grammatik kategoriyadagi so‘zning boshqa kategoriyaga ko‘chishi). Masalan, sifatning otga o‘tishi: *Bron teshar* (bron teshadigan o‘q); *muz yorar* (muzni yorib o‘tadigan paroxod), *bo‘ri kalla* (qovunning bir turi: bo‘ri kalla qovun: bo‘rining kallasiga o‘xshagan qovun), *qizilurug‘* (bu ham qovunning nomi, qizil urug‘li qovun), *qo‘sh quloq* (bir xil idishning nomi: *qo‘sh quloqli idish*) kabi (konversiya bahsiga qarang).

Qo‘shma so‘zning yuqorida, asosan, bir turini (keng ma‘noda «aniqlovchi + aniqlanmish» shaklida hosil bo‘lgan turini) - aniqlovchili qo‘shma so‘zlarni ko‘rib o‘tdik. Qo‘shma so‘z termini, bundan tashqari, juft so‘zlarni (*ota-ona, qovun-tarvuz* kabi), qisqartma so‘zlarni *MTP – mashina traktor parki* (*oldingi MTS-mashina-traktor stansiyasi*), *BMT* - Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi), shuningdek, reduplikatsiya, so‘z takrori yo‘li bilan hosil qilingan so‘zlarni (*ququ: qush* kabi) ham o‘z ichiga oladi. Juft so‘zlar va reduplikatsiya yo‘li bilan yasalgan so‘zlar qo‘shma so‘zning boshqa turlaridan ancha keskin farqlanadi.

So‘z birikmalarining va qo‘shma so‘zlarning qisqarishidan ham yangi so‘z hosil bo‘lishi mumkin (*mashina traktor parki - MTP* kabi).

Bunday soʻzlarning (abbreviaturalarning - qisqartma soʻzlarning) yasash yoʻli abbreviatsiyadir. Bunday yoʻl bilan soʻz yasash oʻzbek tilining ittifoq davrida erishgan yutuqlaridandir. Rus tilidan olingan bu soʻz yasash yoʻli ixchamlik bilan xarakterlanadi: u tejamkorlik tamoyiliga juda mos keladi. Uning nomi rus tilidan kalkalash yoʻli bilan yasalgan: slojnosokrashennie slova –qisqartma qoʻshma soʻz: qisqartirilgan qoʻshma soʻz. Bular qoʻshma soʻzning qisqartib biriktirish yoʻli bilan yaratilgan bir koʻrinishi boʻlib, bir soʻz kabi qoʻllanib, oʻzi maxsus affikslar ham oladi (*rayfinboʻlim* kabi), soʻz yasashning bu turi ot turkumiga xosdir. Lekin hozirda usbu usul soʻz yasash usuli emas degan mulohazalar ham mavjudki, ular yangi soʻz yasamaydi, faqat birikmali soʻzlarning qisqargan shakli sifatida eʼtirof etilmoqda.

Rus tilidan olingan soʻzlar ichida abbreviaturalar ham bor, bular ham oʻzbek tilini boyitib kelmoqda. Oʻzbek tilida ruscha - baynalmilal soʻzlar qatlamining oʻsa borishi, leksikani rivojlantirish bilan birga, xalqlarni va tillari yaqinlashtirib, qisqartma soʻzlarning toʻla shaklining ham oʻzlashib, natijada, bunday leksemalarning qoʻshma soʻz sifatida oʻqilishiga yoʻl ochadi. Masalan, bugungi oʻzbek tilida *telekamera* (televizion kamera; yana *teleocherk*, *telestudiya*, *telegim*), *zoopark*, (zoologiya parki, yana: *zookabinet*, *zoomagazin*, *zoomuzey*), *aviabomba* (aviatsion bomba: aviatsiya bomba; yana: *aviazavod*, *aviapochta*, *aviabaza*), *agitbrigada* (agitatsion brigada: agitatsiya brigadasi; yana: *agitpoezd*, *agitmashina*, *agitpunkt*). Bu hol kalkalashning bir koʻrinishidir.

Hozirgi oʻzbek tilidagi qisqartma otlar yasash texnikasi jihatidan bir qancha koʻrinishlarga ega. Bu oʻrinda misollarni koʻrib oʻtish bilan chegaralanamiz: *OʻzTAG* (Oʻzbekiston telegraf agentligi), *Oʻzdavnashr* (Oʻzbekiston davlat nashriyoti), *avtozavod* (avtomobil zavodi), *ToshDPU* (Toshkent davlat pedagogika universiteti) va b.

Takror yo‘li bilan so‘z yasash (*paqpaq* tipida - so‘zni takrorlash orqali qo‘shma holga keltirish yo‘li bilan yangi so‘z hosil qilish), *tosh yo‘l* tipidagi qo‘shma otlarga o‘xshash, morfologik, sintaktik so‘z yasashning qadimgi ko‘rinishidir. Buning yasaliş texnikasining soddaligi ham qadimiyligidan darak beradi.

Takrorning ko‘rinishlari ko‘p. Bunda dastlab ikki narsa farqlanadi: takror (odatdagi takror) va ikkilanish (*udvoyenie*). Oddiy takror ma‘noni kuchaytirish, intensivlikni, emotsional bo‘yoqni bildirish uchun xizmat qiladi. Bunda ba‘zan ikki marta takrorlash ham uchraydi. Masalan, *tezroq, tezroq yur*: tezlik ma‘nosi kuchaytiriladi (qiyoslang: *tezroq yur, tezroq. Ayting, ayting, bugun yomg‘ir yog‘masin-da*). *U tez-tez gapirdi* (qiyoslang: *u tez gapirdi*): bu takror «ikkilanish» bo‘lib, u harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Quyidagi misollarni chog‘ishtiring: *otasiga ayting, ayting, jiddiyroq ayting, tushuntiring. – U o‘ylab-o‘ylab, bir fikrga keldi (o‘ylab-o‘ylab: uzoq o‘ylab), nima olding?* (bir predmet) - *nima-nima olding?* (ko‘p predmet, nima-nima olding?-nimalar olding? Takror orqali ko‘plik ma‘nosi ifodalangan). So‘z takrorining bu ko‘rinishi so‘z yasash (*paqpaq kabi*) hodisasidan farqli. Yana ayrim misollarni chog‘ishtiramiz: *To‘y, marosimlarga tog‘ora, tugun ko‘tarib borishdan qutulmadik, qutulmadik-da* («Mushtum»). *Tur-tur, ketamiz, - dedi akasi* (“Ertakdan”). *Bir ozdan keyin, erta tongda, tur-tur boshlandi (tur-tur: podyom, turish). Aya, nega bibip kelyapti?* («Mushtum»); *bibip, bipbip*; avtobus (bolalar nutqida).

Anglashiladiki, reduplikatsiya, so‘z takrori o‘zbek tilida ikki xil xarakterga ega: so‘z yasash vositasi va grammatik vosita. U ko‘pincha grammatik vazifani bajaradi: predmetning ko‘pligi, belgining oshirilishi, ma‘noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi va uzoq davom etishi va b. (so‘z yasash vazifasini bajarishi ayrim hollarda uchraydi). Odatdagi takror va ikkilanish (*taq-tuq kabi*) farqli bo‘lib,

soʻz yasash hodisasi bilan keyingisigina bogʻlanadi. Takror ikki xil: toʻla takror (*katta-katta* kabi) va qisqa takror (*kap-katta* kabi). Qisqa takror soʻz yasamaydi, balki soʻz shakli hosil qiladi (*qizil - qip-qizil* kabi). Takror orqali qoʻshma soʻz hosil qilish toʻla takrorda uchraydi.

Takrorning tarkibidagi qismlarning amorf holda kelishi (*taq-taq, taqir-tuqur* kabi) yoki orada kuchaytiruvchi elementning boʻlishi (*taqa-taq, taqira-tuqur*) bir qancha xususiyatlarga ega: oradagi elementning ravish yasovchi affiks bilan bogʻlanishi (*taqqa toʻxtadi: taqq + a, taqa-taq toʻxtadi* kabi), kuchaytiruvchi boʻlib kelishi va qisman birlashtirishga yordam berishi, bogʻlanishni kuchaytirishi (*taraq-turuq; taraqa-turuq, taqir-tuqur, taqira-tuqur, shaqir-shuqur* kabi; keyingi holda birinchi qismning oxirgi boʻgʻinida ikkinchi darajali urgʻuning oʻrni aniqroq seziladi) va b. Lekin oradagi element (-a) bu yoʻl bilan soʻz yasash hodisasini oʻzgartirmaydi.

Takror soʻz yasash vositasi boʻlganda, soʻz qoʻshish hodisasi bilan oʻxshashlik tugʻdiradi (qiyoslang: *ququ* (qush) - *Koʻksuv* (joy oti); grammatik vosita boʻlganda esa, affiksatsiya hodisasi bilan yaqinlashadi. Bunday oʻxshashlik, yaqinlik struktura, maʼno, funksiya jihatidandir. Qiyoslang: *kim-kim keldi? – Kimlar keldi?* Koʻplik birinchi holda soʻz takrori orqali, ikkinchi holda esa affiks orqali ifodalangan. Bu holat (takror yoki affiks qoʻllash) turli tomonlari bilan ajraladi: baʼzan biri ikkinchisining oʻrnida qoʻllana oladi (lekin stilistik jihatdan farqlanadi: birinchisi jonli – soʻzlashuv holatiga mos keladi), baʼzan har ikkalasi bir momentda, bir konstruksiyada qoʻllanadi (kuchaytiruv: umuman, bir maʼnoning ikki vosita bilan, qaytadan ikki marta ifodalanishi, ekspressiya, kuchaytirish, oshirish vazifasini bajaradi), baʼzan ularni almashtirib boʻlmaydi.

Bu qadimiy yoʻl bilan hosil qilingan soʻzlar (-*cha: -chuv* - shovqin maʼnosida, *ba: -bu - bu* ham shovqin-suron maʼnosida) jonli soʻzlashuv uslubini bildirib turadi va taqlid soʻzlardan yasashda,

ko‘pincha, emotsional tusga ega bo‘ladi. Bunday yasalishning *bobov* kabi ko‘rinishlarida qismlar juda birikib ketgan, o‘rniga qarab odatdagicha, affikslar ham qabul qiladi.

Bunday yo‘l bilan yasash bir qancha ko‘rinishlarga ega:

1. Taqlid so‘z ikkilanib, shu tovush bilan xarakterlanadigan predmetning nomi hosil bo‘ladi; predmet, hodisa ovoz belgisi - shuni ko‘rsatuvchi so‘z orqali ataladi. Misollar: *shaqshaq* (qushning nomi. Qiyoslang: *ola shaqshaq, qora shaqshaq*), *qahqah* (keyin -a affiksi qo‘shilgan: *qahqaha*: kulgi), *bobov* (bov + bov: it), *chuchut* (chut+chut: bedana ovida ishlatiladigan bir xil predmet: bedanani chaqiradi), *paqpaq* (bolalar o‘yinida), *popop* (poppop: tikish mashinasi; *oyoq* mashina, *popop* mashina ham deyiladi. Bu so‘zning aslida Popov familiyasi bilan bog‘langan bo‘lishi ham mumkin), *patpat* (mototsikl), *bibip* (bipbip: avtobus), *to‘qto‘q*: (qizil ishton: qush), *biyovbiyov* (qush), *ququ* (musicha), *tutu* (tovuq), *dudut* (dutdut: yengil mashina), *lik-lik*, bir xil ko‘kat: petrushka. Bunday so‘zlarning bir qismi tarkibi sezilmas holga kelgan (ko‘pincha fonetik o‘zgarish natijasida: soddalanish). Masalan, *chumchuq* so‘zi aslida – etimologik jihatdan – *chip-chip* mimemasi bilan bog‘lanadi.

Bu tipda sifat ham yasaladi. Misollar: *shiqshiq tugma* (*pispis tugma* ham deyiladi; bu kompleks – bir qo‘shma ot), *chaqchaq odam* (quvnoq odam: qiyoslang: *chaqchaqa yulduz*; lekin bu chaqnamoq bilan bog‘liq, asli tovushga taqlid so‘z bilan emas, balki holatga taqlid so‘z bilan aloqador), *liplip chiroq* (qadimgi qora chiroq).

Tovush belgisi orqali atash ba‘zan takrorsiz ham bo‘ladi (*ba – qo‘y, mo‘ – sigir, miyov – mushuk* kabi), demak, *bobov* tipidagi yasalishlarda shuning ikkilanishini ko‘ramiz (*miyov-miyov, bov-bov*).

2. Ot ikkilanib, shu so‘z ifodalagan predmet bilan bog‘langan o‘yin nomini (bolalar o‘yini) hosil qiladi. Masalan, *otot* (ko‘pincha *otot - akam* shaklida qo‘llanadi, o‘g‘il bolalar o‘yini), *xola-xola*

(*xolaxolakam*; qiz bolalar o'yini). Bolalar nutqidagi bu yasalishga analogiya bilan, shu modelda, hosil qilingan yangi o'yin nomlari (bolalar nutqida, o'yinning o'zi ham analogiya bilan yaratilgan): *kino-kino*, *bog'cha-bog'cha*, *taksi-taksi*, *doktor-doktor*, *mashina-mashina*.

Bu yasalishda ham takrorning o'z ma'nosi bor: o'yinning nomini otning o'zi ko'rsatadi, ikkilanish esa bu o'yinning ikki tomon bilan (ularning shunga bog'liq bo'lgan harakatni navbatma-navbat bajarishi bilan) bog'liq ekanligini bildiradi, demak, bu o'rinda ham harakatning takrorini ifodalash hodisasini ko'ramiz. Qiyoslang: olmoshning ikkilanishi orqali yasalgan *manman* so'zida ham takrorlanish ma'nosi bor.

3. Fe'lning takrorlanishi (*tur-tur*: podyom – turish) ko'chish orqali jarayon nomi hosil qilganda ham shu hodisani ko'ramiz: qoch-qoch (qochish), *quv-quv* (quvish) kabi. Bunday jarayon nomi shu harakat uchun xarakterli bo'lgan tovushni bildiradigan taqlid so'zni ikkilash orqali ham yasaladi: *qars-qurs*, *qasir-qusur* (qarsir-qursir), *qasir-qusir* (*qarsir-qursir*). Bu yo'l bilan sifat xam yasaladi (*shatir-shutur tovushlar* kabi).

4. *O'qtin-o'qtin* (qarab qo'ydi), *vaqt-vaqt* (u vaqti-vaqti bilan kelib turadi) kabi yasalishlarda, ravish yasashda ham, so'z takrorining ma'lum vazifasi bor.

Juft so'zlar strukturasi ko'ra ikkilanish yo'li bilan yasalgan so'zlarga ancha o'xshasa ham, aniqlovchilik tipidagi qo'shma so'zlardan bir qancha tomonlari bilan ajralib turadi:

1. Juft so'zning komponentlari orasidagi grammatik aloqa, bog'lanish, aslida, tenglanish bo'lib (qiyoslang: *tog'-tosh*: *tog'u tosh*, *tog' va tosh*), aniqlovchili qo'shma so'zlarda tobelanishdir.

2. Aniqlovchili qo'shma so'zda komponentlarning tartibi, odatda, grammatik vazifa bajaradi: ularning bir modelning o'z doirasida o'rin almashtirishi grammatik holatni o'zgartiradi (masalan,

osh qovoq: aniqlovchi+aniqlanmish – *qovoq osh*: aniqlovchi + aniqlanmish); juft soʻzlarda esa bu hodisa uchramaydi (uning komponentlari grammatik jihatdan bir xil holatda boʻladi): juft soʻzlarda baʼzan komponentlar grammatik va semantik holatlarni saqlagan holda oʻrin almashtira oladilar (*goʻsht-yogʻ* – *yogʻ-goʻsht* kabi). Ularning oʻrin almashinishlari mumkin boʻlmasa, uning sababi semantik yo boshqa xarakterda boʻladi, lekin grammatik xarakterda boʻlmaydi.

3. Urgʻu jihatidan ham farqlanadi: oxirgidan boshqa komponentda ikkinchi darajali urgʻuning boʻlish holati koʻproq juft soʻzda uchraydi (qiyoslang: *qovun poliz* – *qovun-tarvuz*). Umuman, fonetik birikish, zichlik, yaxlitlanish nisbatan juft soʻzda kuchsiz boʻladi.

4. Komponentlarning material-kategorial turi jihatidan ham farqlanadi: juft soʻzning komponentlari soʻz turkumi jihatidan, odatda, bir xil boʻladi: ot+ot (yoki ot vazifasida qoʻllangan boshqa soʻz), sifat+sifat kabi.

5. Komponentlarning har jihatdan birikishi - payvand boʻlib ketishi juft soʻzlardagiga qaraganda «aniqlovchili qoʻshma soʻz»larda kuchli. Juft soʻzning komponentlari sintaktik shakl yasovchi affikslarni ayrim-ayrim olish holatiga ham ega (*ota-onasi*: *otasi-onasi*). Baʼzi tiplarda bu affiksning har ikki komponentga ayrim-ayrim qoʻshilishi shart. Bu bilan u qismlarning nisbatan ayrimligi kuchayadi.

Baʼzi hollarda bu shakldagi birikuvlar «aniqlovchili qoʻshma soʻz» ham, juft soʻz ham boʻlishi mumkin. Bu semantik, kontekstual va intonatsion xususiyatlarga qarab aniqlanadi. Misollar: 1. *Kuyov oʻgʻil* (*Seni kuyovoʻgʻil qilamiz* (Fozil Yoʻldosh): Oʻgʻil deb qabul qilingan kuyov (aniqlovchili qoʻshma soʻz) *kuyov-oʻgoʻil* (juft soʻz). 2. *Joʻja xoʻroz* (kichik xoʻroz) – *joʻja-xoʻroz* (juft soʻz). 3. *Tun kecha* (yarim kecha, qorongʻi kecha: aniqlovchili qoʻshma soʻz) – *tun-kecha*

(juft soʻz), *qora sariq* (aniqlovchili qoʻshma soʻz: *qora* ottenkaga ega boʻlgan sariq rang) – *qora-sariq* (juft soʻz). Qiyoslang: *qoʻyib-qoʻyib* kompleksi: 1) reduplikatsiya (harakatning takrori yoki uzoq davom etishi maʼnosini bildiradi); 2) analitik feʼl: harakatning oʻrinsiz bajarilganligini – bajarilmasligi kerak boʻlgan ishning bajarilganligini bildiradi.

Juft soʻzlar turli sabablar (koʻpincha, fonetik oʻzgarishlarning taʼsiri) bilan soddalanish hodisasiga uchrashi ham mumkin: *achchuq-chuchuk* (yuqorida tahlil qilindi) – *salat*, *ogʻa-ini* (juft soʻz) *ogʻayni*, *oshiqmashiq* (sharnir, eshik-romlarning sharniri), *o:shiq-ma:shuq* (sevishganlar: juft soʻz). *Oshiq-mashiq* birikuvi tashqi tomondan oʻzgargan takrorga oʻxshaydi (*oshiq-moshiq*: hayvonning suyagidagi *oshiq-moshiq*: tovush orttirib takrorlash: oʻrik-moʻrik kabi). *O:shiq-ma:shuq* kompleksining fonetik oʻzgarishi bilan tugʻilgan shakli analogiya yoʻli bilan soʻz takroriga oʻxshab qolgan: ovoz-movoz (*ovoz-povoz*) – *oshiq-moshiq*. Demak, bu oʻrinda unlining oʻz uzunligini yoʻqotishi komponentlarning zichroq birikishiga yordam bergan, fonetik oʻzgarish, har xillik, semantik differentsiatsiya uchun xizmat qilgan (*o:shiq-ma:shuq*: sevishganlar, *oshiq-mashiq*: sharnir). Qiyoslang: *ogʻiz-mogʻiz* - *ogʻizma-ogʻiz* (analogiya boʻyicha oʻzgarish).

Juft soʻzlar – kopulyativ tipdagi qoʻshma soʻzlar - deyarli hamma soʻz turkumiga xos, lekin u ot, sifat va ravish turkumlarida koʻp uchraydi: *ota-ona*, *kirim-chiqim*, *borish-kelish*, *erta-kech*, *yer-koʻk*, *oq-qora rang* (*oq qora* rang birikuvi boshqa), *past-baland* gaplar *yuqori-quyi* gaplar (har xil, yaxshi-yomon gaplar), *besh-olti*, *oʻttiz-qirq* va b. Feʼllar *oʻqidi-tashladi* tipida juft shaklga ega boʻlganda, keyingi element modifikatorlik vazifasini bajaradi: u soʻzning analitik shakliga toʻgʻri keladi, lekin har ikki element bir xil shaklda boʻladi: *oʻqidi-tashladi*, *oʻqiysan-tashlaysan*, *aytding-qoʻyding* kabi. Bunday

qo‘shilmada ikkinchi komponent vazifasida qo‘llanadigan elementlar sanoqlidir (*tashla, chiq, qol, qo‘y* va b.).

Juft so‘zlarning asosiy semantik xususiyati umumlashtirish, jamlikni bildirishdir. Juftlashish shu talab natijasida kelib chiqqan. Misollar: *olma-o‘rik* (ho‘l mevalar), *jiyda-mayiz* (quruq mevalar). Demak, shu turdagi hamma predmetlarning jamini bildiruvchi jins oti hosil bo‘ladi. Qiyoslang: *u uyga kirib chiqdi*: kirib chiqmoq – kirish va chiqish harakatlarning umumiy nomi, yana: *borish-kelish*: aloqa, munosabat.

Juft so‘zlarning komponentlari o‘z xarakteriga ko‘ra har xil bo‘ladi. 1. Har ikki element ham yakka holda ayrim ma’no bera oladigan mustaqil so‘z bo‘ladi: *soch-soqol, osh-suv, er-suv, er-ko‘k, qo‘l-oyoq, bosh-oyoq, o‘pka-jigar* va b. 2. Bir element (odatda keyingisi) bugungi tilda ayrim qo‘llanmaydi, yakka holda ma’no bermaydi: *idish-oyoq, kiyim-kechak, ko‘cha-ko‘y, bozor-o‘char* va b. Bularning keyingi elementi ham aslida mustaqil so‘z bo‘lgan: u yoki eskirib, iste’moldan chiqqan, yoki boshqa tildan olingan so‘z bo‘ladi.

3. Har ikki element ham yakka holda qo‘llanmaydi, faqat juftlashib keladi: *ikir-chikir, g‘idi-bidi, chirtin-pirtin* kabi. Bularning asli etimologik tahlil orqaligina aniqlanadi.

Birinchi tur («mustaqil ‘ + mustaqil so‘z»)ning komponentlari semantik jihatdan bir necha xil bo‘ladi: 1. Bir turdagi, yaqin predmetlarning nomlari (umuman, shu semantik xarakterdagi ikki so‘z): *mosh-guruch, arpa-bug‘day, qosh-qovoq, qosh-ko‘z, oltin-kumush, qovun-tarvuz* kabi. 2. Sinonim so‘zlar: *kuch-quvvat, asta-sekin, keksa-qari* kabi. 3. Butun va bo‘lak, umum va konkret qism nomlari: *oy-kun, vaqt-soat, tog‘- Tosh* kabi. 4. Antonim so‘zlar: *kecha-kunduz, yaxshi-yomon, katta-kachik, kelish-ketish, yosh-qari, baland-past* kabi.

Umumlashtirish, jamlash ma'nosini ifodalash juftlashishning asosiy semantik belgisidir. (Qiyoslang: *yaxshi-yomon*: hamma ma'nosida – jamlovchi ot): odatda, komponentlarning ma'nolari asosida yangi ma'no kelib chiqadi: *og'iz-burun, lab-lunj, tish-tirnoq; ko'z-quloq* (ko'z-quloq bo'lib turmoq: qarab – qo'riqlab turmoq) va b. Bunda doim ma'noning kengayishi shart emas. Demak, juft so'zlarda:

1. Ma'no kengayadi: juft so'zning ma'nosi komponentlarning semantik jamligidan, summasidan keng bo'ladi. Masalan, *qozon-tovoq* (shularning atrofidagi, shular bilan bog'langan predmetlarni ham o'z ichiga oladi: lagan, kosa, qoshiq, cho'mich, kapkir va b.).
2. Ma'no kengaymaydi, lekin umumlashish, jamlik ifodalanadi: har ikki qismdan anglashilgan predmetlarning umumiy nomi kelib chiqadi. Masalan, *ota-ona* (qiyoslang: rus tilida: otets i mat: roditeli), *aka-uka, tun-kun*, («sutki», bir sutka). Bular - kengayish, umumlashish - juft so'zlarning umumiy semantik xususiyatidir. Umumlashtirish xususiyati birinchi holatda (ma'no kengayganda) ham saqlanadi. Bu ma'no turli ayrimliklarga, ottentalarga ega bo'ladi. Masalan, predmetlarning umumlashgan nomi (jins oti), harakatlarning umumlashgan nomi (*borish-kelish, olish-berish, qo'yish-chitsish, urish-so'kish* kabi) va b. Sonlar juftlashganda, undagi umumiylik chama, taxmin, noaniqlik mazmunlari bilan bog'lanadi: *uch-to'rt, o'n-o'n besh, yigirma-o'ttiz* kabi. *Asta-sekin, kuch-quvvat, keksa-qari* tipidagi juftlik (sinonimik juftlik) komponentlarning semantik jihatdan bir-birini izohlashi, kuchaytirish xarakterida bo'ladi, stilistik vazifa bajaradi; antonimik juftlashish (*yaxshi-yomon, katta-kichik, yosh-qari*), odatda, umumlashtirish xususiyatiga ega bo'ladi.

Juft so'zning tarkibidagi elementlarning, komponentlarning, joylashish tartibi, odatda, shunday holatlarga asoslanadi:

1. Kam bo'g'inli, tarkibi qisqa komponent avval keladi: *soch-soqol, er-xotin, chol-kampir, mosh-guruch, tosh-tarozi, taxta-o'qlog'i*,

qo'y-qo'zi va b. Bu tartib so'zda urg'uning oxirgi bo'g'inda bo'lishi bilan bog'liq.

2. Bo'g'in soni bir xil bo'lsa, unli tovush bilan boshlanadigan komponent avval keladi (talaffuzga oson): *osh-non, osh-suv, o'tin-ko'mir, o'yin-kulgi, eshik-deraza, oltin-kumush, ota-bola, achchiq-chuchuk* va b.

Har ikki komponent ham undosh tovush bilan boshlangan bo'lsa, spirant yoki jarangli portlovchi tovush bilan boshlanadigani avval keladi: *sigir-buzoq, so'roq-javob, san-man* (ikkalasi *san-manga* borishdi), *sabzi-piyoz, bosh-qosh* (u to'yda *bosh-qosh* bo'lib turdi) va b.

Bu qoidalar asosiy holatni ko'rsatadi: ayrim juft so'zlarda bundan boshqacha ko'rinishlarga ham duch kelamiz. Masalan, *o'g'il-qiz*: kam bo'g'inli komponent keyingi o'rinda kelgan. Bunday holatlarda quyidagilarni ham e'tiborga olish zarur bo'ladi: 1. Asosiy qoidaga muvofiq keyingi o'rinda kelishi lozim bo'lgan ayrim komponentlar semantik xususiyatiga, ahamiyatiga, predmet, hodiso-voqealar orasidagi mantiqiy izchillikka va shu kabi holatlarga ko'ra birinchi o'rinda keladi: *xotin-qiz, o'g'il-qiz, olma-nok, nina-ip, yigit-qiz, yumaloq-yassi, o'tin-cho'p, erta-kech, yiqila-qo'pa, sekin-asta* (*asta-sekin* shakli bilan birga, buning aksi ham bor. Qiyoslang: fonetik o'zgarish bilan bog'langan soddalanish natijasida analogiyaning ishtiroki bilan bu juft so'zdan *sekinasiga* ravishi hosil bo'lgan: *sekin-asta – sekinasiga*), *yeyish-ichish, qovun-uzum* va b. Bu hol komponentlari asosiy qoidaga muvofiq holda joylashgan juft so'zlarda ham rol o'ynagan bo'lishi mumkin (*chol-kampir, tinib-tinchib, avval-keyin, oldin-ketin, birin-ketin* kabi). Yana: *oy-kun, tog'-tosh, savdo-sotiq* kabi juftlarda «umum-qism» (umum tushunchaning bir qismini bildiradigan komponentning keyin kelishi: «keng-tor») tarzidagi holat ham ahamiyatga ega bo'la oladi. 2. Ahamiyati bir xil yoki shunga

yaqin bo'lganda, tartib juda ham bog'liq bo'lmaydi: ba'zan inversiya bilan ham qo'llanaveradi: *go'sht-yog'* va *yog'-go'sht*, *xas-cho'p* va *cho'p-xas*, *qo'l-oyoq* va *oyoq-qo'l*. 3. Undosh tovush bilan boshlanadigan elementning avval kelishi ham uchrab qoladi: *ko'ylak-ishton*, *qovun-uzum* kabi. 4. Tartibda har xillikning bo'lishi ba'zan dialektal xususiyatlar, sheva farqlari bilan bog'langan bo'ladi: *qaynona-kelin* (Toshkent) va *kelin-qaynona* (Farg'ona). 5. Aniq tushuniladigan (ma'nosi aniq bo'lgan) so'z tushunilmaydigan so'zdan yoki mustaqil qo'llanadigan so'z bunday qo'llana olmaydigan so'zdan yoki ko'p qo'llanadigan so'z oz qo'llanadigan, kam o'qiladigan, aniq tushunilmaydigan so'zdan avval keladi: *ko'cha-ko'y*, *temir-tersak*, *katta-kalon*. Qiyoslang: *o't- o'lan* jufti bugungi tilda shu tipga to'g'ri keladi (o'lan hozirgi zamon adabiy tilida o't ma'nosida qo'llanmaydi), lekin uning elementlari aslida bo'g'in soni kam bo'lgan komponentning avval kelishi holatiga ko'ra joylashgan: eski o'zbek tilida *ho'l*, *nam* so'zi ma'nosida *o'l* so'zi, *o't* ma'nosida *o'lang* so'zi ishlatiladi, demak, *o't-o'lan* aslida sinonimik xarakterdagi juft so'zdir (*o'lan: o'l + ang*). 6. Sonlarning juftlashishi ayrim xususiyatga ega: ular izchillik bilan, kichikdan kattaga – pastdan yuqoriga borish yo'li bilan juftlashib, komponentlar shu asosda joylashadi: a) yakka sonlarning birikishi: birdan o'ngacha bo'lgan sonlar ketma-ket, oradagi sonni qoldirmay - «sakrab o'tmay» juftlashadi (*bir-ikki*, *uch-to'rt*, *yetti-sakkiz*), lekin besh va o'n (ikki besh) ham juftlasha oladi: *besh-o'n kishi* (kamaytirib ko'rsatish), past qarash kabi ma'nolarni berish uchun *besh-to'rt* kabi shaklda ishlatish ham uchraydi: dialektal shakl: b) yirik bo'laklarning birikishi (*o'n-o'n besh*, *yigirma-o'ttiz*, *qirq-ellik*, *ikki yuz-uch yuz* kabi): birinchi o'nlikda uning yarmi (besh) bilan birikish (*o'n-o'n besh*) odatdagi hol, lekin dastlabki ikki o'nlikning qo'shilishi (*o'n-yigirma*) juda kam uchraydi; undan keyingilari o'nliklar tartibida, birdan o'ngacha bo'lgan sonlar tartibiga

o'xshash, qo'shilaveradi (*o'ttiz-qirq, sakson-to'qson* kabi); undan keyin *yuz-ikki yuz, uch yuz-to'rt yuz* va b. Keyingi holatda yuz, ming kabi so'zlar har bir komponent bilan birga takrorlanib keladi (*besh yuz-olti yuz* qiyoslang: *besh-olti yuz*), shuningdek, bunday o'rinlarda ular qo'llanmay qoladi ham (*besh-olti ming*, qiyoslang: *besh ming-olti ming*). Bunday xususiyatlar ixchamlikka intilish (juft so'z – bir so'z: uning «kengayishi» ko'p jihatdan noqulay), uslubiy talab kabi hodisalar bilan bog'liq.

Juft so'zlardagi komponentlarning o'zaro fonetik munosabatida shunday hodisani ko'ramiz: ularning bir turida bir-biriga ohangdosh bo'lish – qofiyalanish tendensiyasi ham bor. Buning natijasida komponentlarda fonetik o'zgarish yuz berishi ham mumkin: bir elementning fonetik o'zgarishi fonetik holatga moslashishdan tug'iladi. Masalan, *eski-tuski* (*eski-to'zg'i*: ikkinchi komponent aslida *to'z* fe'li bilan bog'liq), *bosar-tusar* (*bosar-turar*: *u bosar-tusarini bilmay qoldi*), *yasanib-tusanib*: *yasan-tusan* (*yasan-tuzan*: *u yoq-bu yog'ini tuzatmoq; bejamoq*), *telik-teshik* (asli: *tilik-teshik*) *i* unlisi *e* unlisiga o'tgan (*qumliy-shumliy, quvlik-shumlik*: *quv-ayyor*, ba'zan *shumliy-qumliy* shaklida ham qo'llanadi). Bunday fonetik yaqinlik, o'zgarish ma'lum o'rinlardagina uchraydi (qiyoslang: *og'iz-burun, opa-singil, quloq-chakka, sigir-buzoq* kabi juftlashishlarda boshqa holni ko'ramiz). Bu hodisa ularda fonetik butunlik, bir so'z sifatida bo'lish xususiyatini kuchaytiradi. Fonetik o'zgarish, odatda, ikkinchi komponentning birinchisiga moslashishi tusida bo'ladi. Bu o'zgarish natijasida shu elementning (o'zgargan elementning) mustaqil so'zlik holati xiralashadi, ba'zan sezilmas holga keladi - soddalanish yuz beradi. Juft so'zning komponentlari orasida bundan boshqacha fonetik o'zgarishlar ham uchraydi: qisqarishga intilish, chegara tovushlarning o'zaro ta'siri (*san-man – sam-man*: *ular qizishib ketib, san-manga borishdi*), bo'g'in tarkibidagi o'zgarish (*qo'l-oyoq: qo'-lo-yoq*) kabi.

Lekin bunday o'zgarishlarning hammasi juft so'zgagina xos emas. Qiyoslang: *buytma-bunday* etma (xalq dostonlarida), *qor oq* (ega+kesim: *qo-roq*: odatda tezroq tempdagi nutqda; yana: *sut oq, ot oq*) kabi.

Tilning umumiy rivojlanishini juft so'zlarda ham ko'ramiz: *general-mayor, maktab-internat, vagon-restoran, ruscha-o'zbekcha* (lug'at), *harbiy-dengiz* (floti) kabi juftliklar tilni boyituvchi yangi hodisalar bo'lib, bular rus tilidan olingan (*general-mayor* kabi), rus tilidan kalka qilingan. Rus tilidagi bunday juftliklar turli tipda bo'lib, ular o'zbek tilida ham shu holini saqlaydi; ba'zan qo'shilmaning semantik xususiyatiga mos ravishda aniqlovchi+aniqlanmish modelida beriladi. Masalan, *samolyot-bombardirovshik: bombardimonchi samolyot, dom-muzey: uy-muzey* kabi. *Zavod-fabrika* tipidagi juft so'zlar rus tilidan olingan so'zlar asosida yaratilgan nisbatan yangi juft so'zlardir.

II BOB. QO‘SHMA SO‘ZLARNING HOSIL BO‘LISHI VA IMLOSI MASALASI

2.1. Qo‘shma fe’llar va ularning imlosi

Fe’l tub yoki yasama bo‘lishi mumkin. Yasama fe’l – yasovchi qo‘shimcha qo‘shib yasalgan (*ishla, afsuslan, tinchi*) va so‘zga so‘z qo‘shib yasalgan (*olib bermoq, javob bermoq, himoya qilmoq*) fe’l. Shunga ko‘ra fe’l yasashning ikki yo‘li ajratiladi: qo‘shimcha qo‘shish (affiksatsiya) va so‘z qo‘shish (kompozitsiya) usuli.

Qo‘shimcha qo‘shish fe’l yasalishining keng tarqalgan usuli, bu yo‘l bilan quyidagi turkumlardan fe’l yasaladi:

1. Ot: *ishlamoq, ko‘zikmoq, qonamoq, suvsamoq.*
2. Sifat: *pasaymoq, qisqarmoq, oqarmoq, garangsimoq.*
3. Son: *ikkilanmoq, birikmoq,.*
4. Olmosh: *sizlamoq, mensimoq, sensiramoq.*
5. Ravish: *ko‘paymoq, kechikmoq, tezlashmoq.*
6. Modal: *yo‘qotmoq, yo‘qlamoq, yo‘qolmoq.*
7. Undov: *voyvoylamoq, dodlamoq.*
8. Taqlid: *gumburlamoq, shildiramoq, yaltiramoq, miltillamoq.*

O‘zbek tilida qo‘shma fe’l asosan qismlarining qaysi so‘z turkumiga tegishliligiga ko‘ra ikki xil xil bo‘ladi.

1. Fe’l+fe’l andozali qo‘shma fe’llar.
2. Fe’l bo‘lmagan so‘z+fe’lning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan qo‘shma fe’llar.

Ilmiy adabiyotlarda fe’l+fe’l andozali qo‘shma fe’llarning u darajada ko‘p emasligi qayd etiladi². Masalan, *sotib olmoq, borib kelmoq, olib yurmoq, ishlab chiqarmoq* va hokazo. Qo‘shma fe’l qismlari doim ajratib yoziladi. N.Mahmudov va boshqalar tomonidan

² Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009.

umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun e'lon qilingan Ona tili darsligida qo'shma fe'l uchun 60-dars ajratilgan. Darslikda qo'shma fe'lni ta'riflovchi izoh-qoida o'quvchilar yoshiga mos deyish mumkin. Unda shunday yoziladi. *“Birdan ortiq asosdan tashkil topib, asoslar orasiga boshqa qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydigan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi fe'llar qo'shma fe'l sanaladi. ...Qo'shma fe'llar ot, sifat, son, olmosh va taqlid so'zlarga qil, et, bo'l singari so'zlarni, fe'l shakllariga kelmoq, ketmoq singari fe'llarni qo'shish bilan hosil bo'ladi.”* Darslikda *“qo'shma fe'llarning har ikkala qismi o'zining lug'aviy ma'nosini saqlagan bo'ladi. Masalan, borib keldi (ham bordi, ham keldi), ikkinchi qismi o'z ma'nosida qo'llanilmaganda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi hosil bo'ladi. Masalan: o'qib chiqdi”*, degan jummalarni uchratamiz³. Bu to'g'ri, albatta. Ammo bu ta'rifda masalaning ikkinchi tomoni e'tibordan chetda qolganday. Ya'ni fe'l+fe'l bo'lmagan so'zlardan hosil bo'lgan qo'shma fe'llarning hammasining ham har ikki qismi o'z lug'aviy ma'nosiga ega bo'lavermaydi. Masalan, taqlid, undov, olmosh kabi so'zlar lug'aviy ma'noga ega emas. Demak, *tiq etdi, oh urdi, kerak bo'lmoq* kabi qo'shma fe'llarning birinchi qismi lug'aviy ma'noga ega deya olmaymiz. Ular ikkalasi birikkan holdagina ma'noga ega bo'ladi. O'sha darslikda qo'shma fe'lni o'rganish va mustahkamlash uchun 2ta topshiriq, 3ta mashq va 3ta savol berilgan.

Mazkur mavzuni o'quvchilar ongiga yaxshilab yetkazish o'qituvchi zimmasiga tushadi va undan mahorat talab qilinadi. Chunki qo'shma fe'lga shaklan o'xshab ketadigan *“ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi”* ham bor-da. Ularning farqini tushuntirish ancha mehnattalab ish, albatta. Ular ham tuzilishiga ko'ra sodda emas, balki qo'shma (murakkab fe'l) sanaladi. Bunday vaqtda quyidagiga o'xshagan misollardan foydalanish maqsadga muvofiq.

³ Mahmudov N. va b. Ona tili. Darslik. 6-sinf. – Toshkent, 2005. –B. 68.

Mashq. O‘qing, murakkab fe’llarni topib, tarkibini izohlang.

1. Nigora uning hijolat chekayotganini sezib, dalda berishga harakat qildi (O.Y.) 2. Kumushbibi sakrab Pirmatning yuziga qaradi va uzoq tin olib qo‘ydi. (A.Qod.) 3. Qalandar bu tashvishli o‘ylar bilan bo‘lib, tun yarmidan oshganicha mijja qoqmay o‘tirdi. (O.Y.) 4. U o‘tirgandan keyin yo‘g‘on gavdali keng yelkali qorachadan kelgan bir yigit so‘z so‘radi. zal g‘ovur bo‘lib ketdi. Ko‘pchilik unga so‘z berilishini talab qilar, rais esa bosh tortar edi. Oldingi safda o‘tirganlardan biri turib, masalani e’tirozga o‘rin qolmaydigan tarzda hal qilish va’dasi bilan so‘z oldi, bir oz xolis so‘zlab turib so‘z berilmagan yigitni do‘pposlab ketdi. (A.Q.) 5. O‘qish suvli jo‘shqin Burasoy O‘sh qal’asining tosh yotqizilgan poydevoriga bosh urib, ko‘pirib o‘tadi. (P.Q.) 6. Mana yor-do‘stlarining yuziga qarolmay qoldi. Uy ostonasidan hatlab ko‘chaga chiqolmay qoldi. Nega, nima uchun?(S.A.) 7. Guzardagi bitta-yu bitta sadaqayrag‘ochning qalin, baqaloq shoxlari tashlab turgan soya ham suvdan chiqarilgan laqqabaliqlar singari nafasleri bo‘g‘ilib, o‘tirgan a‘yonlar joniga orom berolmay qoldi.(M.I.) 8. Shaharga shom qorong‘isida kirib borishdi.(T.Mal.) 9. Aziza yurak qopqasini keng ochmas, “shoshgan qoqiladi” degandek qiya turardi, xolos. Bundan uning uzoqni ko‘zlaganligi, o‘z baxtining hech qayoqqa qochib ketmasligiga ishonganligi ko‘rinib turardi. (Sh.) 10. - Kutilmagan bir baxt dedi va o‘zining otidek bir narsaning tovushi kabi kulib yubordi.(A.Qod.) 11. Osmon bilan o‘pishgan cho‘qqilarning oppoq qori quyosh tig‘ida yaltirab turardi.(Sh.R.)

2.2. Qo‘shma otlar va ularning imlosi

Qo‘shma ot qismlari orasida quyidagi sintaktik munosabatlarning yo‘qolishi natijasida hosil bo‘ladi:

1. Aniqlovchi+aniqlanmish: bilaguzuk, achchiqtosh, oshqozon, toshko‘mir, bedapoya, so‘z boshi, Beshariq, Kattaqo‘rg‘on.

2. Ega+kesim: Soykeldi, Qoryog‘di.

3. To‘ldiruvchi+kesim: dunyoqarash, kungaboqar, muzyorar, otboqar, ish tashlash.

4. Hol+kesim: besh otar, iskabtopar, bosvoldi.

5. Kesim+undalma: yoriltosh, ochildasturxon.

O‘zbek tilida rus, tojik va boshqa tillardan o‘zlashgan parovoz, aeroport, dushanba, chorshanba, obdasta kabi otlar kelib chiqishiga ko‘ra qo‘shma ot bo‘lsa-da, o‘zbek tilida qo‘shma ot ekanligi anglashilmaganligi tufayli sodda ot deb qaraladi.

Qo‘shma ot quyidagi tur qoliplar asosida yasaladi:

Ot+ot: *jo‘raboshi, zaharxanda, ishtonbog‘, karvonsaroy, karvonboshi, kinodramaturgiya, kinolenta, ko‘zmunchoq, lolaqizg‘aldoq, makkajo‘xori, namozshomgul, oshqozon, otquloq, oshqovoq, piyozdog‘, sochpopuk, toshbo‘ron, tilxat, tomorqa, toshbaqa, tog‘olcha, tuyaqush, tuyatovon, xontaxta, xo‘rozqand, shakarqamish, shamchiroq, shaftoliqoqi, yurtboshi, qo‘ziqorin, qo‘ypechak, ajdargul, ayiqtovon, atirgul, arpabodiyon, baqaterak, belbog‘, bilaguzuk, bo‘yinbog‘, gugurtcho‘p, gulbarg, gulbahor, gultojaxo‘roz, gulbog‘, guldasta, gulqaychi, gulg‘uncha, gulhamishabahor, yer yong‘oq, joynamoz, , qo‘larra, qo‘ltiqtayoyq, temiryo‘l.*

Sifat+ot: *ko‘ksulton, kaltakesak, Sho‘rko‘l, ko‘rsichqon, ko‘rshapalak, oqsoqol, xomtok, qoradori, boychechak.*

Ot+fe'l: *socho'sar, echkiemar, ko'zboylog'ich, kallakesar, husnbuzar, beshiktervatar, dunyoqarash, mushtketdi, o'rinbosar.*

Son+ot: *yettisuv, beshbarmoq, beshqarsak, Oltiariq, uchburchak, mingoyoq, qirqog'ayni.*

Son+fe'l: *beshotar.*

Ot+sifat: *ustabuzarmon, gulbeor, oshko'k.*

Fe'l+fe'l: *iskabtopar, ishlabchiqarish.*

Fe'l + ot: *savacho'p.*

Birikma xususiyatiga ega bo'lgan *Markaziy Osiyo, Janubiy Amerika, O'zbekiston Respublikasi, Fanlar akademiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti* kabi qo'shma otlar ham bor. Uning bir qismi qisqargan holda ham qo'llanadi.

Yuqorida qayd etilgan darslikning 86-87-darslari qo'shma ot masalasiga qaratilgan. Unda jami 2ta topshiriq, 7ta mashq va 6ta savol-topshiriq o'quvchilar hukmiga havola qilingan. Qo'shma otlar yasalishi va imlosi ancha murakkab bo'lib o'quvchidan o'tkir zehn, muallimdan esa mahorat va tajriba talab qilinadi. Bu ishni amalga oshirish uchun "Imlo qoidalari"ning quyidagi bandlariga diqqat qaratish talab qilinadi.

38. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, surat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *qabulxona, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. - (a)r (inkor shakli -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimchalar qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: *pirpirak (pir-pir+ak),*

bizbizak (biz-biz+ak), hayhayla (hay-hay-la), gijgijla (gij-gij+la) kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan, bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: bir narsaga nisbatlash yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbatan berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga keladigan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzacho'l, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod, Xalqobod* kabi. *Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi:

kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat kabi.

Shundan so'ng darslikdagi mashq va topshiriqlarga qo'shimcha tarzda quyidagicha misollardan foydalanish zarar qilmaydi.

Mashq. Gaplarni o'qing. Qo'shma va juft otlarni toping. Qo'shma va juft otlar tarkibidagi so'zlarni qaysi turkumdanligini aniqlang.

1. Yoshlikda bilinmaydi, umr o'yin kulgi bilan o'taveradi.(Sh.)
- 2.- Horib-charchab zo'rg'a-zo'rg'a oyoq tashlab qo'shxonalariga qaytgan vaqtlarida yarim kecha ancha o'tib qolgan edi. (Ch.)
3. Xorazmshoh saroyidagi 16 ustunli, oq ganchli xonada tantanavor qabul qilingan elchilar bilan suhbat odatdan tashqari qisqa bo'ladi (M.)
4. Mehriniso bu xonadonga kelin bo'lib tushgan kundan boshlab chol- kampir uni o'z qizlaridan yaxshi ko'rishsa korishadiki, yomon korishmaydi! (O.Y.)
5. Quvasoy botqog'ining ustidan o'tgan mana shu uzun yog'och ko'prik ham Mulla Fazliddin chizib bergan tarh bo'yicha qurilgan (P.Q.)
6. Qal'a etagida Kosonsoyning Sirdaryoga guvillab quyilayotgan, ikki daryo to'lqinlari bir-birlari bilan olishib, qirg'oqqa shaloplab urilayotgani uzoqdan eshitilib turadi (P.Q.)
7. - Kamina ham aytmoqchi edimki, Amirzodamning she'rpanjaliklari podshoh otangizga tortganligingizdan nishonadir! (P.Q.)
8. Bulduruq qishlog'i O'rta qo'rg'onning g'arbida edi. Shahar vokzalidan aravaga tushilsa biron o'n soatga yetsa bo'lardi. Qishloqning kun chiqar-u kun botari ochiq edi (M. Do'st.)

2.3. Qo'shma sifat, olmoshlarning hosil bo'lishi va imlosi

So'zlarni qo'shish, bog'lash va juftlash bilan quyidagi turdagi sifatlar yasaladi:

1) qo'shma sifatlar quyidagicha yasaladi va yoziladi:

a) ot va otdan. Bular qo'shib yoziladi: *bodomqovoq, sheryurak*;

b) sifat va otdan. Bular qo'shib yoziladi: *qimmatbaho*;

d) ot yoki ravishga *-ar* qo'shimchali fe'lni qo'shish bilan yasaladi. Bular qo'shib yoziladi: *tezoqar daryo, ertapishar (o'rik)*.

e) otga *aro, umum, yarim, g'ayri, nim, rang* so'zlarini qo'shish bilan. Bular qo'shib yoziladi: *xalqaro, umumkomanda, yarimavtomat, g'ayridin, nimpushti*.

Qo'shma sifatlar: a) ikki tub so'zdan tashkil topadi: *sovuqqon, xom semiz, kamgap*; b) biri tub, ikkinchisi yasama so'zdan iborat bo'ladi: *ishyoqmas, erksevar, tilbilmas, o'zbilarmon*.

2) birikmali sifatlar tarkibi ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'ladi va ular orasidagi munosabatlar aniq sezilib turgan bo'ladi, bunday sifatlar *aralash, yo'q, ko'p, oliy, och, to'q, to'la, chala, yarim, bir, ikki* kabi so'zlar ishtirokida hosil qilinadi: *qum aralash* (loy), *tengi yo'q, ko'p tarmoqli, oliy ma'lumotli, och qizil, qorni to'q, to'q qizil, to'la huquqli, chala mulla, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori hosilli* (dala), *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulug'* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).

3) juft sifatlar quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma'noli so'zlardan: *katta- kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi*; 2) sinonim ko'rinishdagi so'zlardan: *erka-arzanda, boy-badavlat, sog'-salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo'min-qobil, xor-zor*; 3) yaqin ma'noli so'zlardan: *och-nahor, shaldir-shuldir, o'ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq, kuydi-pishdi*.

Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, *-u, -yu* yuklamalari bilan bog'lansa, chiziqcha qo'yilmaydi: *yakka-yu yagona farzand*.

3. So'zlarni takrorlash bilan ham sifatlar yasaladi: Bu usul yordamida sanoqli miqdordagi sifatlarga yasaladi: *yo'l-yo'l* (ko'ylak), *manman* (odam), *shiqshiq* (tugma), *liplip* (chiroq), *chaqchaq* (odam).

Ona tili darsligining 120-mavzusi qo'shma sifat bahsiga qaratilgan. Unga 1ta topshiriq, 3ta mashq va 3ta savol ajratilgan. Nazarimizda bu kam. Mashqlar rang-barang va mazmundor bo'lsa o'quvchilarning o'zlari izlab topishiga imkon ko'proq bo'ladi, deb o'ylaymiz. Darsni mustahkamlashda test usulidan va qo'shimcha manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mashq. Gaplarni o'qing. Sifatlarni topib, tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.

1. Bunday tinch, ma'sud damlarda uni qog'oz-qalam o'ziga tortardi (P.Q.) 2. Bu shifobaxsh suvning topilganiga hali bir yil ham bo'lgani yo'q (O.Y.) 3. U paxta ishi naqadar og'ir ekanini, ayniqsa kuzda terim paytida, yo shu qari barchaning tinkasini quritishini yaxshi biladi (O.Y.) 4. Tezyurar lift qushday yengilgina uchib, Rasulni bir zumda to'rtinchi qavatga olib chiqdi (O.Y.). 5. Direktorimiz bizni tag'in-da yuksak-yuksak zafarlar sari chorlaydi (T.M.) 6. Go'yo Yusufbek ham o'zidek bir qonxo'rga bir zolimga aylansin emish (A.Qod.) 7. Qancha toza va musaffo, farahbaxsh, zebo, ey, odamzod, ibrat olgin yulduzlardan sen (M.Sh.) 8. Shu sokinlikni buzib, qaydadir kuchli portlash bo'ldi. Uning dahshatli ovozi tog' ko'kragiga qadalib aks-sado qaytdi (S.A.) 9. Xushkayfiyat odam uchun tong otishini kuzatishdan zavqliroq yumush yo'q (T.Mal.).

Mashq. Gaplarni o'qing. Qo'shma, murakkab va juft sifatlarni topib, ularni uch ustunda yozing.

1. Baland parvoz soʻzlaringiz koʻnglimga zigʻir yogʻiday urdi (O.) 2. Eshik ochilib yetti-sakkiz yosh-qari dehqonlar hujraga kirdilar (O.) 3. Zumrad yoʻlning past-balandidan ehtiyot qadam tashlasa-da, qoqila-suqila borar edi (O.) 4. U soddaroq, qoʻpolroq kiyingan, baqbaqasi qoʻsh qavat osilgan, keng yagʻrinli, mitti koʻzlari ayyor, kalta toʻrva soqolli oltmish yoshlardagi kishi (O.) 5. Siyrak mallarang sochlari kechki shabadada hurpaygan, koʻm-koʻk koʻzlari hayratdan chaqnagan (O.Y.). 6. Toʻrdagi kichkina eshik ochilib ichkaridan toʻla yuzlik, oʻsiq qoshliq, ogʻir qaragʻuvchi koʻzlik, siyrak soqol, oʻrta boʻyluq, ustidan kimxob toʻn kiyib, beliga qilich osqan qirq besh yoshlar chamasida bir kishi koʻrindi (A.Qod.). 7. Men otamga jannatmakon Shohruh Mirzoga Kamarbasta oʻgʻil boʻldim qirq yil muttasil (M.Sh.). 8. Endi u yalang oyoq tanini oftob kuydirgan shoʻx, olov bola emas, sochlari oqargan, hayotning achchiq-chuchugini totgan Tolibjon edi (S.A.). 9. Hayitali oqsoqol choʻrtkesar bir soʻzli edi (T.Mal.). 10. Sinf rahbari oʻquvchisining sogʻ-salomat ekanini bilib, koʻngli tinchidi (T.Mal.). 11. Hokim qulogʻiga bir-ikki chalingan Saritepa qishlogʻi ham shu soyning oʻng tomonida boʻlib, oʻn-oʻn ikkitagacha pastu baland tomlardan iborat edi (M.).

Oʻquvchilarning qoʻshma soʻzlar bilan tanishtirish va ularning savodxonligini oshirish uchun turli oʻyinlar, boshqotirma va tarqatma materiallardan ham foydalanish oʻrinli boʻladi. Masalan olmoshlarning tuzilishiga koʻra turlarini aniqlashda quyidagi terma mashqdan foydalanish mumkin.

Mashq. Gaplarni oʻqing. Olmoshlarni topib, tuzilishiga koʻra turlarini aniqlang.

1. Kechqurun gavjum boʻladigan koʻchalar hozir allanechuk jimjit. (P.Q.) 2. -Oʻzida turaveradi. Hech kim tegmaydi. (S.A.) 3. U ana shu bepoyon yerlarning chin egasi sifatida uzoq-uzoqlarga sevinch va iftixor bilan termildi va bu yerlarni oʻzlashtirib, bagʻri toʻla

xazinani ochmoq uchun qancha -qancha mehnat zarurligi to'g'risida xayol surdi. (Sh.R.) 4. Uni yaxshi kiyingan, allanarsasiga mag'rur bo'lgan bir necha kishi o'rab oldi. (A.Q.) 5. -Gul sekin -sekin so'ladi, sekin-sekin go'zalligini yo'qotadi, keksara boradigan ko'ngilda hech qachon so'lgan bo'lib ko'rinmaydi. (A.Q.) 6. Azizjon hech qanday ilmiy asosga suyanmagan holda paxtachilikka yovvoyi pushni kiritmoqchi. (O'.U.) 7. U hech nima demay shu turganicha qarab turaverdi. (M.) 8. Kampir qiziga javob topolmadi, allanimalar deb po'ng'illab savatdagi zag'oralarni yoyib qo'ydi-da, oshxona yig'ishtirgani ketdi. (O.) 9. Shu mahal kimdir uning otini aytib chaqirib qoldi.(Sh.) 10.Sizsiz kelajak yo'q, siz axir xalqning ming yilini ko'rajak qaroqlarisiz. (G'.G'.)

Shuningdek, qo'shma so'zlarning boshqa andozalardagi ko'rinishlarini ham yuqorida qayd qilgan lisoniy qoliplar asosida o'rganish, ilmiy asoslash, o'zbek tilining materiallari yordamida dalillash tilshunoslik rivojida katta ahamiyat kasb etishi, bu jarayonni kehg jamoatchilik tomonidan e'tirof etishida, tilning ushbu sohasining yanada oydinroq taraqqiy etishida muhimdir.

UMUMIY XULOSALAR

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi tufayli barcha sohalardagi kabi tilda ham bir qancha yangi so‘zlar hosil bo‘ldi. Tildagi ko‘plab begona so‘zlar o‘rniga tilimizning ichki imkoniyatlari va arxaik qatlami hisobidan yangi so‘zlar iste‘molga kiritildi. Ko‘plab yasovchi affikslar faollashdi, ko‘plagan yangi kalkalar paydo bo‘ldi. Shubhasiz, o‘zbek tilining so‘z yasaliş sohasi yangi bir bosqichda taraqqiy qila boshladi.

Jamiyatning jadal taraqqiyoti eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan tilga ham ko‘plab talablarni qo‘ymoqda. Xususan, ishlab chiqarish, sanoat, fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, ayniqsa, axborot texnologiyalarining bugungi kundagi taraqqiyoti natijasida yuzlab yangi tushunchalar iste‘molga kirib kelmoqda. Bu tushunchalarni iste‘molga to‘liq kiritish uchun esa yangi so‘zlarga ehtiyoj seziladi. Ana shunday zaruriy ehtiyoj natijasida ko‘plab yangi so‘zlar paydo bo‘lmoqda.

O‘zbek tilida yangi yasalmalar asosan ikki xil usulda: affiksatsiya va kompozitsiya usulida hosil qilinadi. Ayniqsa, affiksatsiya usuli juda sermahsuldir. Biz mazkur ishimizda kompozitsiya usuli bilan so‘z yasaliş hodisasi va shu usulda yasalgan so‘zlarni tahlil qilib tegishli xulosalarga keldik. Yuqorida aytilganlar asosida quyidagilarni qayd etish mumkin bo‘ladi:

O‘zbekistonning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi so‘z yasaliş taraqqiyotiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatdi. Natijada ko‘plab yangi yasalmalar, kalkalar paydo bo‘ldi. O‘zbekcha so‘zlar tub turkiy so‘zlardan va o‘zbek tilidagi o‘zlashgan so‘z negizlardan hosil qilinadi.

Turli yo‘l (turli sabab, hodisa) tufayli leksemalarning yuzaga kelishi so‘z yasash usuli bilan so‘z hosil qilish hisoblanmaydi. Binobarin, ular so‘z yasaliş tizimi obyektiga kirmaydi.

Yasama so‘zning tarkibi uni tashkil etuvchi qismlardan iborat bo‘ladi. Yasama so‘z so‘z yasaliş asosiga so‘z yasovchini qo‘shish orqali hosil qilinadi. Binobarin, har bir yasama so‘z ana shu ikki qismdan iborat bo‘ladi, ya‘ni so‘z yasaliş tarkibi so‘z yasaliş asosi va so‘z yasovchidan tuziladi.

Tarkibida birdan ortiq lug‘aviy ma‘noli qismning borligi “qo‘shma so‘z”lik belgisi, kompozitsiya usuli bilan yasalganlik belgisi bo‘la olmaydi kabi munozarali fikrlar ilgari suriladi. O‘zbek tilida so‘z yasashning kompozitsiya (so‘z qo‘shish) usuli mavjud emas degan fikr mantiqiy asosga ega bo‘lsada, tilda o‘z o‘rnini to‘la topganicha yo‘q. Shu bois o‘zbek tilida so‘z yasashida ham kompozitsiya usulida qo‘shma so‘zlar yasalishi bahsi munozaralidir.

O‘zbek tilida *kam, xush, ham* kabi yordamchi bilan so‘z yasash hodisasi bor. Lekin buni kompozitsiya usuli bilan so‘z yasash hisoblash, ular yordamida yasalgan so‘zlarni esa “qo‘shma so‘z” deb hisoblash ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Kompozitsiya usulida ot yasalishi hodisasi natijasida qo‘shma va juft otlar yasalishi kuzatiladi. Qo‘shma otlarning yasashida tarkibi turli mustaqil so‘zlardan tashkil topgan ot ma‘noviy turlari mavjud. Juft otlarning hosil bo‘lishida [ot+ot], [sifat+ot] qolipi hamda boshqa turkumga oid so‘zlarning otga o‘tishi hodisasi faol hisoblanadi.

Qo‘shma, juft va takroriy so‘zlarga bo‘lgan ko‘z qarash tilshunoslikda turlicha talqin qilinadi. Ma‘lumki, ichki grammatik tobelik munosabatlari anglashilmaydigan, ikki yoki undan ortiq so‘z shakllaridan tashkil topib, bir urg‘uga birlashadigan va bir tushunchani ifodalaydigan so‘z qo‘shma so‘z sanaladi.

Juft so‘z ma‘no jihatidan o‘zaro biron darajaga bog‘langan ikki boshqa-boshqa so‘zning grammatik jihatdan teng munosabatda birikishi bilan har biri o‘z ma‘nosi va urg‘usini saqlagan holda bir umumiylikka ega bo‘lgan butunlik hosil qilishi bilan paydo bo‘ladi. Takroriy so‘z leksik-grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil qiluvchi, takror holda qo‘llanadigan so‘zdir.

Kompozitsiya yo‘li bilan so‘z yasash qo‘shma so‘zlar yaratish bo‘lib, bunda ikki yoki undan ortiq so‘zning qo‘shilishi yangi leksik birlik - leksemani hosil qiladi. So‘z yasashning bu tipi ham o‘zbek tilidagi faol yo‘llardandir.

Qo'shma so'zning komponentlari, tarkibidagi qismlari, ayrim so'z (tub so'z yoki yasama so'z) tusida bo'ladi: bu element shu ko'rinishida boshqa kombinatsiyalarda o'zak yoki negiz vazifasida kela oladi.

Qo'shma so'zning ko'pi tashqi tomondan «aniqlovchi-aniqlanmish» sxemasidagi so'z birikmasiga o'xshaydi, hatto shunday omonimik hollar ham borki, shu shakldagi birikuvning qo'shma so'zmi yoki so'z qo'shilishimi ekanligi turli vositalar orqali aniqlanadi: bunda semantik-grammatik, intonatsion vositalar farqlovchilik rolini bajaradi.

Qo'shma so'z bir butun leksik ma'no - bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish - grammatik strukturasi ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi: demak, u bir so'zdir, uning komponentlari - qismlari orasida grammatik aloqa yo'q, lekin semantik aloqa mavjud, u har qanday so'z qo'shilmasida - gapda, so'z birikmasida - bir sintaktik vazifani bajaradi. Qo'shma so'z, sodda so'zlar kabi, tilning bir birligi bo'lib, undan nutqda har gal tayyor leksik material sifatida foydalaniladi, so'z birikmasi esa bunday tayyor hodisa emas: u nutq jarayonida ma'lum qoidalar asosida hosil qilinadi.

O'zbek tilida qo'shma fe'l asosan qismlarining qaysi so'z turkumiga tegishliligiga ko'ra ikki xil xil bo'ladi.

1. Fe'l+fe'l andozali qo'shma fe'llar.
2. Fe'l bo'lmagan so'z+fe'lning qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma fe'llar.

Ilmiy adabiyotlarda fe'l+fe'l andozali qo'shma fe'llarning u darajada ko'p emasligi qayd etiladi. Masalan, *sotib olmoq*, *borib kelmoq*, *olib yurmoq*, *ishlab chiqarmoq* va hokazo. Qo'shma fe'l qismlari doim ajratib yoziladi.

Kompozitsiya usulida yasalgan qo'shma ot, sifat va olmoshlar yasalishi va imlosi ancha murakkab jarayon bo'lib, tadqiqotchidan chuqur izlanish, o'quvchidan o'tkir zehn, muallimdan esa mahorat va tajriba talab qilinadi. Bu ishni amalga oshirish ilmiy manbalar, o'zbek tilining izohli lug'ati va imlo qoidalarining tegishli bandlariga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Barkomal avlod orzusi - kelajagimiz poydevori. –T., 1999.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T., 2008.
3. Karimov I.A. Adolat, vatan va xalq manfaati har narsadan ulug‘. –T.: O‘zbekiston, 1998. -B. 59.
4. Karimov I.A. 2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. –T., 2012.
5. Abdurahmonov N. Hozirgi zamon o‘zbek tilida juft so‘zlar sostavi masalasi //Samarqand davlat universitetining asarlari. - Samarqand, 1963.
6. Berdialiyev A. O‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shma affikslar. Filol. fanlari nomzod. diss. avtoref. –Toshkent, 1970. –B.12.
7. Hojiyev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar. – T., 1965.
8. Hojiyev A. Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi. –T., 1979.
9. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi –Toshkent, 2007. 167 bet.
10. Hojiyev A. O‘zbek tilining morfem lug‘ati. –Toshkent, 1992, 225 bet.
11. Hojiyev A. i dr. Sporn’e vopros?v sisteme slovoobra’zovaniya tyurkskix yaz’kov. «Sovetskaya tyurkologiya» jurnali. №2, 1989. –B.27-31.
12. Hojiyev A. O‘zbek tilida so‘zning morfologik tarkibi masalasi. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. №1. 1988. –B.29-33
13. Kaydarov A. Parniye slova v sovremennom uygurskom yazike. -Alma-Ata, 1958.
14. Mengliyev B. O‘zbek tilining struktur sintaksisi. –Qarshi: Nasaf, 2003. 186 bet.
16. Ona tili. 5-sinf. -Toshkent, 2005. 6-sinf. – Toshkent, 2005.
17. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –Toshkent, 2006.
18. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: 2009.

19. Tojiyev Yo. O‘zbek tili morfemikasi. –T., 1992. 152 bet.
20. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: O‘zbekiston, 1992. 400 bet.
21. Ubryatova E.I. Udvoenie osnovi v yakutskom yazike. - Voprosi grammatiki (Sbornik statey k 75-letiyu akademika I.I.Meshaninova). -M.- L., 1960,
22. Vinogradov V.V. Russkiya yaz'k. Grammaticheskoe uchenie o slove. Izdanie vtoroje. –M.: V'sshaya shkola, 1972. 340 s.
23. O‘zbek tili grammatikasi, ikki tomlik, I tom. Morfologiya, -T.:«Fan» nashriyoti. 1975. –B.22-23.
24. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, besh tomlik, I tom, -T., 2006, -B. 235.
25. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. - T., 2004.
26. Zikrillayev G‘. O‘zbek tili morfologiyasi. –Buxoro: NS, 1994. 250 b.
27. Shahobiddinova Sh. O‘zbek tili morfologiyasi umumiylik va xususiylik dialektikasi talqinida. 2 juzv. –Andijon, 1994.
28. [http://www.pedagog.uz/Pedagogik ta'lim muassasalari sayti.](http://www.pedagog.uz/Pedagogik%20ta%27lim%20muassasalari%20sayti)
29. www.Ziyonet.uz
30. www.literature.uz

MUNDARIJA

Asoslama.....	
Kirish.....	
I bob. O‘zbek tilida so‘z yasalishi hodisasi va kompozitsiya Usuli.....	
1.1. O‘zbek tilida so‘z yasalish tiplari va strukturasi.....	
1.2. Qo‘shma so‘z yasalish modellari.....	
1.3. Qo‘shma so‘z qismlari orasidagi munosabatlarning ifodalanishi.....	
II bob. Qo‘shma so‘zlarning hosil bo‘lishi va imlosi masalasi.....	
2.1. Qo‘shma fe‘l va ularning imlosi.....	
2.2. Qo‘shma otlar va ularning imlosi.....	
2.3. Qo‘shma sifat va olmoshlarning hosil bo‘lishi va imlosi.....	
Umumiy xulosalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	